



O'ZBEKISTON PREZIDENTINING ROSSIYA FEDERATSIYASIGA TASHRIFI BOSHLANDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasida rasmiy tashrif bilan bo'lib turibdi.



Davlatimiz rahbari dastlab Qozon shahriga keldi.

Abdulla To'qay nomidagi xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya

Hukumatining Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov kutib oldi.

Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrif

doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozon shahridagi "Kazan Ekspo" markazida ochilgan Tatariston sanoat salohiyati ko'rgazmasiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbariga Rossiya Hukumatining Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va Tatariston Raisi Rustam Minnixonov hamrohlik qildi.

4-oktabr kuni bu yerda uchinchi O'zbekiston — Rossiya hududlararo hamkorlik forumi bo'lib o'tdi. Prezidentimizga ushbu tadbir yakunlari to'g'risida batafsil axborot berildi.

Davlatimiz rahbari Tataristonning yetakchi korxonalarini sanoat mahsulotlari va texnologiyalari bilan tanishdi.

Ko'rgazma doirasida Rossiya Hukumatining Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Navbatdagi O'zbekiston va Rossiya hududlari forumida erishilgan kelishuvlarni, eng avvalo, sanoat kooperatsiyasi loyihalarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

Tashrif davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qozon Kremli" tarixiy-me'moriy va badiiy muzey-qo'riqxonasida bo'ldi.

Davlatimiz rahbariga Tatariston Raisi Rustam Minnixonov hamrohlik qildi.

Qozondagi Kremli UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. U Qozonning eng qadimgi qismi bo'lib, shaharning ko'p asrlik tarixini o'zida mujassam etgan me'moriy, tarixiy va arxeologik yodgorliklardan iborat.

Bu yerda O'zbekiston Prezidenti "Qul Sharif" masjidini kirib ko'rdi. Tatariston musulonlari diniy boshqarmasi raisi, muftiy Kamil Samigullin oliy martabali mehmonga masjid tarixi haqida batafsil so'zlab berdi. Duo o'qildi. Masjid 1996-2005-yillarda Qozon xonligi hududida XVI asrning ikkinchi yarmiga qadar

mavjud bo'lgan juma masjidi o'rinda bunyod etilgan va Imom Qul Sharif nomi bilan atalgan.

Davlatimiz rahbari Qozon va Tatariston mitropoliti Kirill hamrohligida Blagoveshensk soborini ham ko'zdan kechirdi. Qozon Kremli hududidagi obidalarining eng qadimgisi bo'lgan ushbu inshoot XVI asrda bunyod etilgan. Pskov me'morchilik an'analari yorqin namunasidir.

Shavkat Mirziyoyev Rossiya Federatsiyasiga rasmiy tashrif doirasida Tatariston Respublikasi Raisi Rustam Minnixonov bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari keyingi yillarda o'zaro hamkorlikda yuqori natijalarga erishilganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Savdo va investitsiyalar hajmi oshib bormoqda. Toshkent viloyatida "Chirchiq" kimyo-industrial texnopark muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda, Jizzax viloyatida texnopark qurilishi davom etmoqda.

Kimyo tarmog'i va mashinasozlikda yirik kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmog'da. Jizzax shahrida Qozon federal universitetining filiali ishlatilmoqda.

Qozon shahrida o'tgan uchinchi O'zbekiston — Rossiya hududlararo hamkorlik forumining yakunlari, jumladan, O'zbekiston hududlarida Rossiyaning "Alabuga" va "Master" texnoparklari bilan yangi sanoat parklarini tashkil etish bo'yicha erishilgan kelishuvlar qayd etildi.

Metallarga ishlav berish, axborot-kommunikatsiya, uy-joy kommunal sohaslarida istiqbolli kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish, ta'lim, turizm va yoshlarga oid siyosatda hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Uchrashuv yakunida muhim yo'nalishlar bo'yicha amaliy sheriklik loyihalarini qo'shma "yo'l xarita"lari asosida ilgari surishga kelishib olindi.

Rasmiy tashrif bilan Rossiya Federatsiyasida bo'lib turgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Qozondan Moskvaga keldi.

Rossiya poytaxtining "Vnukovo-2" aeroportida davlatimiz rahbarini Rossiya Federatsiyasi Hukumatining Raisining o'rinbosari — sanoat va savdo vaziri Denis Manturov va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga O'zbekiston va Rossiya davlat bayroqlari ko'tarildi, faxriy qorovul saf tordii. Tantanali kutib olish marosimi bo'ldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 6-oktabr kuni ikki mamlakat yetakchilari tor va kengaytirilgan tarkibda muzokara o'tkazadilar. O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.

Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, transport-kommunikatsiyaviy, madaniy-gumanitar va boshqa ustuvor yo'nalishlarda har tomonlama hamkorlikning holati va istiqbolini ko'rib chiqish rejalashtirilgan. Mintaqaviy va xalqaro kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Prezidenti Rossiya Federatsiyasi Hukumatining Raisi Mixail Mishustin bilan ham muzokara o'tkazadi.

O'ZA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI TOJIKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI BILAN TELEFON ORQALI MULOQOT QILDI

5-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmonning telefon orqali muloqoti bo'lib o'tdi.

Davlatimiz rahbari Tojikiston yetakchisini tavallud kuni bilan dildan qutlab, unga mustahkam sog'liq, baxt-saodat va muvaffaqiyatlar, birodar tojik xalqiga esa tinchlik-osoyishtalik va ravnaq tiladi.

O'zbekiston — Tojikiston munosabatlarida bugungi do'stlik, strategik sheriklik va ittifoqchilik darajasiga erishilishida Emomali Rahmonning hissasi alohida qayd etildi.

Faol muloqot va almashinuvlar rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi. O'zaro tovar ayiriboshlash hajmi ortmoqda. Savdo, investitsiya-

lar, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalarini amalga oshirilmoqda.

Mintaqaviy hamkorlik masalalarini yuzasidan ham fikr almashildi. Dushanbe shahrida 14-15-sentabr kunlari bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi Maslahat uchrashuvi va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi yubiley sammitining samarali yakunlari yuksak baholandi.

O'ZA

TARAQQIYOT YO'LI




INSON QADRI ULUG'LANGAN JAMIYAT

AYOLGA CHINAKAM QUVONCH ULASHADI

Davlatimiz xotin-qizlar huquqlarini himoya qilish va gender tenglik borasidagi xalqaro talablarni to'liq bajarishga intilib kelayotir. O'zbekistonda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish, Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari, Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risidagi konvensiyalar ratifikatsiya qilingan.

Davomi 4-betda



XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI KAFOLATLI TA'MINLASH

Xalqchil va demokratik tamoyillarga asoslangan yangi O'zbekistonni, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish xalqimizning oliy maqsadidir. So'nggi yillarda bu yo'nalishdagi ezgu niyatlarimizni ro'yobga chiqarish yo'lida muhim islohotlar kechmoqda. Bu jarayonda tinchlikni mustahkamlashga eng muhim vazifa sifatida ustuvor ahamiyat qaratilayotir.

Har qanday davlat mustaqilligini, xalqning erki va tinchligini milliy armiyasi himoya qiladi. Mustaqilligini, tinchligini asray olgan davlatgina barqaror rivojlanadi, tinchlik, xotirjamlik, osoyishtalik qaror topgan mamlakat esa gullab-yashnaydi. Shu bois, jamiyatimizdagi islohotlar jarayonida mudofaa sanoatini modernizatsiya qilish, milliy armiyamizni zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada ixcham va tezkor, kuchli harbiy salohiyatga ega zamonaviy armiya barpo etildi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarining yangi, munosib avlodi shakllandi. "Xalq va armiya bir tanu bir jon" degan ezgu g'oya esa harbiy-vatanparvarlik sohasidagi muhim o'zgarishlarga turtki bo'lmoqda.

Davomi 3-betda

IQTISODIY O'SISH MEZONI

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida iqtisodiy o'sish barqarorligini yanada oshirish orqali aholi hayoti hamda turmush farovonligining yuqori darajasini ta'minlashga qaratilgan maqsad va vazifalar belgilangan. Ular mamlakatimizda munosib ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini yaratishdek keng qamrovli islohotlarning uzviy qismi sifatida iqtisodiyotning har tomonlama (inklyuziv) o'sishini ta'minlash va shu orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olishga xizmat qiladi. Aynan ushbu sa'y-harakatlar davlatimiz obro'si va kuch-qudratini oshirib, yanada yuqori pog'onaga chiqishga undaydi.

Bozor munosabatlari va keyingi natijalar

O'zbekistonda bozor munosabatlari keng rivojlantirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun mustahkam poydevor mavjud. Uning asosini aql-zakovati hech kimnikidan kam

bo'lmagan mehnatkash xalqimiz, uddaburon tadbirkorlarimiz, bepoyon dalalarimiz va yer osti boyliklarimiz tashkil etadi. Bularning barchasi O'zbekistonning daromadi yuqori davlatlar qatoridan munosib o'rin olishiga imkon beradi.

Davomi 3-betda

PREZIDENT TOPSHIRIG'I AMALDA QIZILTOG'DA OTGAN TONG

shaharcha aholisiga xursandchilik va masrurlik baxsh etmoqda

Toshkent viloyatida Qiziltog' degan shaharcha bor. Aholi tilida "Krasnogorsk" deb o'rtnashib qolgan. Ayni kunlarda Qiziltog'da otayotgan har bir tong hudud aholisi qalbiga ajib kayfiyat, shukronalik hissini, mezon shamollari esa yuraklarga huzurbaxsh tuyg'ularni armug'on etayotganday. Nega deysizmi? Axir aynan shu hududda o'tgan haftada bir emas, 10 ga yaqin bino va yangi muassalar to'liq ta'mirlanib, zamonaviy qiyofada, barcha qulayliklarga ega holda foydalanishga topshirildi.

Davomi 2-betda



O'zbekiston elchisi Botirjon Asadov:

MAMLAKATLARIMIZ O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR SO'NGGI O'N YILLIKLARDAGI ENG SAMARALISI HISOBLANADI

Oliy darajadagi O'zbekiston – Rossiya sammiti arafasida “RIA Novosti” axborot agentligi tomonidan O'zbekistonning Rossiya Federatsiyasidagi Favqulodda va muxtor elchisi Botirjon Asadov bilan ikki mamlakat munosabatlariga bag'ishlangan intervyu e'lon qilindi.

Unda O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohasidagi hamkorlik munosabatlarining holati va istiqbolari haqida so'z boradi.

O'zbekiston elchisi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlar hozirgi bosqichda so'nggi o'n yilliklardagi eng samaralisi hisoblanishini ta'kidlagan. “Ular ikki tomonlama munosabatlarimiz o'zaro hamjihatligi, boyligi, shidati va eng muhimi, sifati bilan ajralib turadi, — deydi diplomat. — Rossiya, shuningdek, O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlaridan biridir. O'tgan yil yakunlariga ko'ra, tovar ayir-boshlash hajmi to'qqiz milliard dollardan oshdi va jadal o'sib bormoqda”.

Intervyuda Rossiya O'zbekiston iqtisodiyotining yetakchi investorlaridan biri hisoblanishi qayd etilgan.

“So'nggi uch yilda O'zbekistonda Rossiya kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ikki barobar ko'paydi. Bugungi kunda ular soni uch mingga yaqin. Tog'-metallurgiya, energetika, kimyo, qishloq xo'jaligi, mashinasozlik va elektrotexnika sanoatida sanoat kooperatsiyasi loyihalari faol amalga oshirilmoqda”, degan mamlakatimiz diplomatik missiyasi rahbari.

Subhat davomida O'zbekiston va Rossiya o'rtasidagi madaniy-gumanitar sohadagi hamkorlik dinamikasi keyingi yillarda yangi sifati bosqichiga ko'tarilgani alohida urg'ulangan.



O'zbekiston rasmiy vakili mamlakatlarimiz o'rtasidagi aloqalar madaniyat, san'at, teatr, kinematografiya va madaniy-gumanitar sohaning boshqa yo'nalishlarida ham kengayotganini bildirgan. Elchi o'tgan yil davomida Toshkent va Moskva shaharlarida madaniyat bo'yicha quy o'q'mita majlislari, shuningdek, muzey xodimlarining ikkita konferensiyasi bo'lib o'tganini ma'lum qilgan. “O'tgan yili Moskva va Sankt-Peterburgda O'zbekiston madaniyati kunlari va O'zbek kino kunlari muvaffaqiyatli o'tkazildi”, deyiladi intervyuda.

“Bundan tashqari, rossiyaliklarning sayohat uchun O'zbekistonga borishi keskin oshdi. 2023-yilning dastlabki olti oyida O'zbekistonga borgan rossiyalik sayohatlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,9 barobar oshib, 345 ming kishini tashkil qildi. 2022-yil bu ko'rsatkich 185,6 ming sayohatchini tashkil qilgan edi”, deya qayd etilgan “RIA Novosti” tomonidan tarqatilgan intervyuda.

“Dunyo” AA
Moskva

DIL IZHORI

RUHLANTIRADIGAN OMIL

U menga kuch beradi, yangiliklarga undaydi

Dilbar ABDULLAYEVA, Jizzax shahridagi 3-maktabning matematika fani o'qituvchisi

Xursandligimning chek-chegarasi yo'q. Shunday kunlarda beixtiyor o'tmishingiz, butun faoliyatingiz ko'z o'ngingizdan kino tasmasidagi o'tarkan. 1990-yili hozirgi Jizzax davlat universitetini tamomlab, Jizzax shahridagi 3-maktabda ish boshlaganman. Oz emas, ko'p emas, 33 yildan buyon shu maktabda matematika fanidan dars beraman. Ushbu yillarda o'qituvchiga bugungidek hurmat, e'tibor ko'rsatilmagan, desam mubolag'a bo'lmaydi.

O'qish boshlanishi bilan paxta terimiga chiqardik, hatto dekabr oyida ham yomg'ir-qor kechib paxta terardik. Ta'lim sifati, o'qituvchilar va o'quvchilar sog'lig'i hech kimni qiziqitmasdi. Muhimi paxta rejasini bajarish edi. Alam qiladigan jihati, dalada paxta yo'q, ammo reja bor edi. Rejani bajarish uchun esa paxta sotib olish kerak. Bugun bu ishlar xuddi ertakdek tuyulsa-da, o'quvchi, talaba, o'qituvchi, byudjet tashkilotlari xodimlari, umuman, xalqimiz paxta qulligidan ozod qilingani inqilobga teng islohot bo'ldi. Sobiq sho'rolar tuzumidan keyin ham mustaqillikning 25 yilligigacha davom etgan paxta mavsumining mashaqqati barham topdi. Keksa o'qituvchi sifatida aytaman, bu ish oson bo'lgani yo'q.

Bugun ta'lim davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilayotgani, o'qituvchilar mehnati munosib qadrlanayotgani, kasbiga aloqasi yo'q jamoat ishlari, ortiqcha qog'ozbozliklardan ozod etilgani o'z samarasini bermoqda. Muallimlarni o'z ustida ishlash, sidqidildan, fidoyilik bilan mehnat qilishga undamoqda. Davlatimiz rahbari qanday qiyin bo'lmasin, o'qituvchilarning oyligini ming dollarga chiqarish haqida bir necha bor va'da berdi. Barcha pedagogning oyligini birdan shuncha miqdorga ko'tarish ayni paytda qiyin. Eng muhimi, bu borada keng imkoniyatlar eshigi ochildi. Bundan foydalanib, hatto ming dollardan ortiq oylig oloyotgan, kasbiga fidoyi o'qituvchilar safi oshyapti. To'g'risi, o'zining ham oyligim qariyb ming dollarga yaqinlashdi, ammo maktabimizda ming dollardan ortiq maosh oloyotgan hamkasblarimiz ham bor. Shunday oylig oloyotgan muallimlarni ko'rib, boshqa o'qituvchilar o'z ustida ishlashga, shunday natijalarga erishishga harakat qilayapti.

Oylikdan ham ko'p ruhlantiradigan omil bor. Bu — shogirdlarning yutuq'ini ko'rish. Shuncha yil minglab yigit-qizlarga ta'lim-tarbiya berdim. Ular orasida turli kasb egalari bor. O'nlab shogirdlarim matematikadan fan olimpiadalarining shahar, viloyat, respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga



kiritgan. O'qituvchilik kasbini tanlaganimdan, shuncha shogirdim borligidan faxrlanaman. Bayramlarda eslab tabriklashsa yoki ko'chada ko'rib, ustoz deb hurmat ko'rsatsa, o'zimga yo'q xursand bo'laman.

29-sentabr kuni kechqurun, eng avvalo, shogirdlarim, keyin kasbdoshlarim, yaqinlarim birin-кетин qo'ng'iroq qilib tabriklandi. Ularga e'tibori uchun minnatdorlik bildiryapman-u, qanday unvon, orden yoki medal bilan taqdirlanganimni bilmayman.

— O'yijon, tabriklayman! “O'zbekiston Respublikasi xalq o'qituvchisi” faxriy unvonini olibsiz, — dedi o'g'lim va telefonidan davlatimiz rahbarining “O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan ta'lim-tarbiya tizimida alohida o'nak ko'rsatgan xodimlardan bir guruhini mukofotlash to'g'risida”gi farmonini ko'rsatdi.

Taqdirlanganlar ro'yxatida ikkinchi bo'lib ism-familiyam turganini ko'rib, beixtiyor ko'zimga quvonch yoshi quyildi. Birdan farzandlarim, nevaralarim, kelimim biri qo'yib, biri quchoqlab tabriklandi. Ertasi maktabda jamoadoshlarim, shogirdlarim katta tantana qilib, gullar bilan kutib oldi. Shu kuni viloyatimiz hokimi Prezidentimiz nomidan tabriklab, yuksak mukofotni topshirdi.

Qaysi rivojlangan mamlakatni ko'rsangiz, u yerda, albatta, ilm-fanga e'tibor, o'qituvchilarga yuksak ehtirom ko'rsatilayotganiga, yaqin maosh bilan ta'minlanganiga guvoh bo'lasis. Xursand qiladigan, O'zbekiston ham shu yo'ldan ketmoqda. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini qurishdek ulug'vor maqsadni oldimizga qo'yganimiz. Ishonchim komil, ushbu ulug'vor maqsad yo'lidagi ishlar, albatta, o'z samarasini beradi. Yangi O'zbekistonda barpo etilgan Uchinchi Renessans poydevori butun dunyo taraqqiyoti, hamjihatligi va osoyishtaligiga katta turki bo'ladi.

PREZIDENT TOPSHIRIG'I AMALDA

QIZILTOG'DA OTGAN TONG

SHAHARCHA AHOLISIGA XURSANDCHILIK VA MASRURLIK BAXSH ETMOQDA

Otabek ISROILOV,
O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi

“2022-2023-yillarda ushbu xayriy ishlar uchun 267 milliard 512 million so'm mablag' ajratildi va joriy yilning o'tgan davrida 48 milliard 200 million so'mlik qurilish va yangilanish ishlari olib borildi. Hozirgi kunda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari jadal bormoqda. 28 kilometrlik ichki yo'llar ta'mirlanmoqda, 1 ta ko'priq qurilmoqda, 10 kilometr suv quvuri tortilib, 7 ta ijtimoiy soha binolari kapital ta'mirdan chiqarilmoqda. Qiziltog' ahlilari mana shunday o'zgarishlar shukhi bilan yashay boshladi.

Boshlanishi 1-betda

Yangilanishga mushtok shaharcha

Toshkentdan 66 kilometr janubi-g'arbda, Chotqol tog'ining janubi-g'arbiy qismida, dengiz sathidan 600 metr balandlikda joylashgan Qiziltog' shaharchasi dastlab 1955-yilda Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani negizida shahar tipidagi posyolka sifatida tashkil etilgan.

Yurtimiz mustaqillikka erishgunga qadar u nafaqat O'zbekistonda, hatto sobiq ittifoqning uzoq-yaqin o'lkalarida ham tanilgan shaharcha edi. Bugungi kunda Parkent tumani ma'muriy tarkibida bo'lgan va nomi Qiziltog' deb o'zgarigan bu shaharchada yigirma mingga yaqin aholi yashaydi.

Ochig'i, kommunal sohadagi muammolar qiziltog'liklarning tinkasini quritayotgani. Isitish tizimidagi nosozliklar, elektr energiyasi ta'minotidagi surunkali uzilishlar, toza ichimlik suvdagi vaqtga ko'ra yetkaziladigan “rejali taqsimot” va ishsizlik...

O'ttiz yillab o'zgarishga intiq, yangilanishga mushtok bo'lgan shaharcha bugun yangicha qiyofada qiziltog'liklarga quchoq ochib turibdi. Demak, bo'lar ekan, bajarish mumkin ekan!

Shaharsozlik infratuzilmasi deyarli izdan chiqqan Qiziltog'da hayotni yana o'ziga qaytarish, albatta, o'z-o'zidan bo'lmadi. Bugungi yangi Qiziltog', shoir aytmoqchi, oydan tushgan emas, ko'kdan tushgan emas.

Yil davomida shaharcha infratuzilmasini yanada yaxshilash, tubdan yangilash bo'yicha misli ko'rimagan ishlar amalga oshirildi. Qurilish va bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirish ishlari keng quloqch yo'ldi, bugun ham bu ishlar davom etmoqda.

2022-2023-yillarda ushbu xayriy ishlar uchun 267 milliard 512 million so'm mablag' ajratildi va joriy yilning o'tgan davrida 48 milliard 200 million so'mlik qurilish va yangilanish ishlari olib borildi. Hozirgi kunda ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari jadal bormoqda. 28 kilometrlik ichki yo'llar ta'mirlanmoqda, 1 ta ko'priq qurilmoqda, 10 kilometr suv quvuri tortilib,

7 ta ijtimoiy soha binolari kapital ta'mirdan chiqarilmoqda. Qiziltog' ahlilari mana shunday o'zgarishlar shukhi bilan yashay boshladi.

Ko'rimsiz, qarovsiz, tashlandiq bino edi

Qiziltog' shaharchasining Fayzobod mahallasidagi “Chotqol” madaniyat sa-



royi anchadan beri qarovsiz, ko'rimsiz binoga aylanib qolgan edi. O'tgan asrning elliginch yillari o'rtalarida qurilgan bu maskan qariyb yetmish yil mobaynida biror mara to'liq ta'mirlanmagan. Bu yer madaniy tadbirlar o'tkazish u yoqda tursin, kirgani kishi xavfsiraydigan tashlandiq maskanga aylanayozgandi.

Ammo gavhar umrbod qum ostida qolmaydi.

Yaqindagina “Chotqol” madaniyat saroyi Olmaliq kon-metallurgiya kompaniyasining homiylik mablag'larini hisobidan zamonaviy ko'rinishda ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi. Bu yerda joriy yilning aprel oyida mukammal ta'mirlash ishlari boshlangan bo'lsa, qisqa muddatda ushbu binoda barcha sharoit yaratishga erishildi. Ta'mirlash jarayonida tarixiy-madaniy meros obyektining asl qiyofasi saqlab qolingani ham e'tiborga molik.

Madaniyat saroyining ochilish marosimida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev, madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov, Olmaliq KMK boshqaruvi raisi Abdulla Xursanov, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, tuman faollari va boshqalar ishtirok etdi.

Qurilish-ta'mirlash ishlari davomida “Chotqol” madaniyat saroyi hovlisiga 12 metrlik favvara o'rnatildi. Obyektning tom qismidagi eski shiferlar profnasitga almashtirildi. Fasad qismi va xonalar suvoqdan chiqarilib, pardoz ishlari amalga oshirildi. Eski turdagi derazalar o'rniga plastik romli oynalar o'rnatilib, isitish tizimi ham butkul yangilandi. Binoning tungi yoritish



“Madaniyat saroyida 1 ta katta tomosha zali bo'lib, 336 o'ringa mo'ljallangan. O'n mingdan ziyod badiiy va boshqa yo'nalishdagi kitoblarni o'zida jamlagan zamonaviy kutubxona mavjud. Badiiy to'garaklar musiqa asboblari, musiqiy markaz hamda ko'chma sahnalar bilan ta'minlandi. To'garaklarda 200 ga yaqin yosh doimiy ishtirok etib keladi. Ikkinchi qavat ham zamonaviy usulda bezatildi.

bu joy butunlay boshqa ko'rinishda edi. Ko'rimsiz, qarovsiz, tashlandiq bino bugun yana madaniyat saroyi, ma'naviyat maskani bo'lib parkentliklarga quchoq ochyapti. Ayniqsa, Qiziltog' oqshomi odamlarning madaniyat saroyi hovlisidagi hordiq chiqarishi, kechki sayrlari, bolalarning kulgisi bilan yanada fayzli.

Madaniyat saroyida 1 ta katta tomosha zali bo'lib, 336 o'ringa mo'ljallangan. O'n mingdan ziyod badiiy va boshqa yo'nalishdagi kitoblarni o'zida jamlagan zamonaviy kutubxona mavjud. Badiiy to'garaklar musiqa asboblari, musiqiy markaz hamda ko'chma sahnalar bilan ta'minlandi. To'garaklarda 200 ga yaqin yosh doimiy ishtirok etib keladi. Ikkinchi qavat ham zamonaviy usulda bezatildi.

“Yorug' kunlarga talpinib yashadik, ishladik”

— Ochig'i, issiq suv, sovuq suv degan tushuncha esimizdan chiqib ketgandi, — deydi Qiziltog' shaharchasi shifoxona hamshirasi Sayyora Begmatova. — Bir tibbiyot xodimi uchun ham oddiy sharoitlar mavjud emasligi, albatta, dilimizni o'ksitardi. Lekin yorug' kunlarga umid qilib yashadik, ishladik. Mana, hozir hamma sharoit muhayyo. Endi yayrab-yashnab ishlash kerak, xolos.

Qiziltog' shifoxonasi ham belgilangan dastur doirasida ta'mirlandi. Ayniqsa, o'ttiz o'rinli shifoxonaga qo'shimcha shtatlar ajratilib, zarur tibbiyot jihozlari yetkazilgani kutilgan ish bo'ldi. Aholiga sifatli xizmat ko'rsatish uchun tunu kun faoliyat olib boradigan malakali 5 nafar mutaxassisdan iborat shifokorlik posti yo'lga qo'yilgani ham shifoxona faoliyatidagi o'zgarishlardan biridir.

— Shaharchada aholi salomatligini saqlash va tibbiyot tizimini yanada yaxshilash uchun qariyb 1 milliard so'm

sifati va tezligiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay qolmaydi, albatta.

Shu bilan birga, tez tibbiy yordam xizmatini yaxshilash maqsadida “Tez yordam” mashinasi xarid qilib, aholiga xizmat ko'rsatish uchun hozirlandi.

Qiziltog'dagi bir-birini takrorlamas, o'zaro uyg'un qurilish va o'zgarishlar bugun aholi ko'nglini ko'tarayotgani shubhasiz. Xususan, 7 ta ijtimoiy soha obyekti, jumladan, 56-umumiy o'rta ta'lim maktabi ham to'liq rekonstruksiya qilindi.

Ma'rifatparvar jadid bobolarimizning “Najot — ta'limda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi”, degan da'vati ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh g'oyasiga aylangan. Shaharchadagi 55-maktabning kanalizatsiya tizimi qayta ta'mirlanib, elektron doskalar bilan jihozlangani, 56-maktab to'liq rekonstruksiya qilingani, 57-maktab va mahalla yoshlari uchun yangi futbol maydoni foydalanishga topshirilgani fikrimiz tasdiqidir.

Mamlakatimiz rahbari shu yil 2-avgust kuni Toshkent viloyatiga tashrifi mobaynida Yuqori Chirchiq tumanida barpo etilayotgan Futbol bo'yicha milliy terma jamoalar markazini borib ko'rgan edi. Yuqori Chirchiq tumanida yosh futbolchilar bilan muloqot chog'ida “O'zbekistonda futbol — eng sevimli sport turi. Har o'nta odamdan to'qqiztasi uning muxlisi desa bo'ladi. Bu ommaviylikdan foydalanib, futbolni tubdan rivojlantirish kerak. Masalan, yurtimizda 10 mingta maktab bor, 208 ta tuman-shahar bor. Xo'sh, maktab, mahalla, jamoalarda futbol qanday bo'ladi? Ikkinchidan, futbolga mehr qo'ygan bolalar o'z yo'lini topishi uchun nima qilishimiz kerak? Uchinchidan, yoshlar futbolidan ketgandan keyin nima bilan shug'ullanadi, ularga qo'shimcha kasb-hunar berishini ham o'ylash zarur”, deya ta'kidlagandi.

O'zbekiston Futbol assotsiatsiyasiga qarashli stadion uchun yotoqxona binosi ham qurildi. Mazkur majmualarda yoshlar uchun barcha qulayliklar yaratilib, shaharchadagi Oydin mahallasida 1 ta vorkaut va sritbol, Said ota mahallasida esa bitta universal sport maydoni qurildi.

Shaharchadagi istirohat bog'i ham zamonaviy ko'rinishga keltirildi. Ko'p qavatli uy-joylarning fasad, tom qismlari, yo'laklari va 2 ta bolalar maydonchasi barpo etildi. 14,2 kilometr yo'llarda ta'mirlash ishlari, piyodalar yo'laklari qurib bitkazildi. Oqova suv lotoklari va bordyurlar o'rnatildi. Bundan tashqari, 10,2 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortilib, suv inshooti va nasoslari yangisiga almashtirildi. 200 dan ortiq eskirgan simyog'och yangisiga almashtirilib, tarmoqlar yangilandi.

— Qiziltog'da yangi tong oldi, degim keladi, — deydi Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshkent viloyati bo'limi rahbari Sayyora Fayziyeva. — Bu kunlarni qiziltog'liklar uzoq kutdi, inqib kutdi. “Sabr bilan yetar murodga” deganlaridek, mard va olijanob, sabrii va mehnatsevar Qiziltog' ahlilari xursandchilik va shukronalikka masrur yashayapti. Bu inshootlar, bu binolar xalqimizning yaxshi kunlarida, to'y-tomoshalarida



miqdorida mablag' yo'naltirildi, — deydi Parkent tumani tibbiyot birlashmasi bosh shifokori Bobur Aliyev. — Bu mablag'lar hisobidan 2 ta UTD uskunasi, 1 ta rentgen apparati xarid qilindi. Qolaversa, laboratoriya bo'limi biokimyoviy va gematologiyahallilar uchun zamonaviy uskunalar, mikroskop va boshqa asboblardan ta'minlandi. Bu tibbiy yordam

xizmat qilsin, qiziltog'liklarga muborak bo'lsin!

Ta'kidlash joizki, Prezidentimiz tashabbusi bilan Qiziltog' shaharchasidagi bunyodkorlik va yangilanish ishlari kelgusi 2024-2025-yillarda ham davom ettiriladi. Hududning infratuzilma obyektlarini ta'mirlash uchun yana 207 milliard so'm mablag' ajratilishi belgilangan.

O'ZBEKISTON STRATEGIYASI 2030

XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKNI KAFOLATLI TA'MINLASH

IQTISODIY O'SISH MEZONI

Qutbiddin BURHONOV, Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari hamda soha faxriylarini ijtimoiy himoya qilish masalasiga ham jiddiy ahamiyat berilmoqda. Faqat keyingi bir yilning o'zida 3 mingdan ortiq harbiy uy-joy bilan ta'minlandi, ularning salkam 2 ming farzandiga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun imtiyozli tavsiyanomalar berildi, 4 mingdan ziyod harbiyning turmush o'rtog'i kasbga o'qitilib, ishga joylashtirildi, 1250 harbiy pensioner bandligi ta'minlandi.

Bunday e'tibor va imkoniyat tufayli harbiylik obro'-e'tibori kasbga, yoshlar orzu qiladigan sohaga aylandi. Bugun milliy armiyamizda xizmat qilish yoshlarimiz uchun nafaqat faxrii burch, balki yuksak shon-sharafga aylandi. Barcha ota-



bo'ldi. Qonunda davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, qo'riqlash va himoya qilish sohasidagi asosiy tushunchalar, davlat chegarasini

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham qator masalalar o'z aksini topdi. Xususan, davlat chegarasini qo'riqlash tizimiga zamonaviy texnologiyalar, kommunikatsiya vositalari va texnik (muhandislik) inshootlarini keng joriy qilish, davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlash jarayonini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yanada avtomatlashtirish vazifalari belgilab qo'yildi.

onalar farzandi voyaga yetgach, Qurolli Kuchlarimiz safida xizmat qilishni istaydi. Chunki zamonaviy jangovar texnik qurollarni mukammal egallagan yigitlarimiz millatning, yurtning iftixori bo'layotganini hammamiz ko'rib turibmiz.

Shu bilan birga, bugungi kunda jahonda, jumladan, mintaqamizda, bevosita chegaralarimiz yaqinida turli tahlid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Dunyoda ro'y berayotgan g'ibrid xarakterdagi qurolli to'qnashuvlar tahlili bizdan qo'shinlarimizning jangovar harakatlari jarayonida ilgari amalda qo'llanilmagan qurollardan foydalanadigan kuchlarga qarshi kurashga olish qobiliyatini oshirishni taqozo etmoqda. Bunday sharoitda, avvala, jangovar harakatlarning samarali shakli va usullarini tadqiq va tatbiq etish, Qurolli Kuchlarning yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish borasidagi ishlarni jadallashtirishimiz lozim.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida bu borada muhim vazifalar belgilandi. Bu hujjatning beshinchi ustuvor yo'nalishi mamlakatni xavfsiz va tinchliksevar davlatga aylantirish ishlari davom ettirish bo'lib, unda ikkita kichik yo'nalish va 11 maqsad aks ettirilgan. Mazkur ustuvor yo'nalish ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat yuritish hamda mamlakatimiz xavfsizligi, mudofaa salohiyatini kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Bu yo'nalishda axborot xavfsizligi va kibernetika alohida e'tibor berilgan. Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib sodir etilayotgan turli huquqbuzarliklar soni ortib bormoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida 3712 ta kibernetika sodir etildi. Shundan 1625 tasi kibernetika, 1141 tasi kibernetika, 102 tasi g'iyohvandlik moddalarini internet orqali tarqatish bilan bog'liqdir.

Bu ma'lumotlar dalolat beradiki, raqamlashtirish jarayoni jadallashtayotgan bir vaqtda axborot xavfsizligi va kibernetika xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biri. Shu sababli, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida internet tarmoqidan to'siqsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, milliy internet makonida kibernetika xavfsizligini ta'minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Shuningdek, strategiyada jahonda sodir bo'layotgan murakkab global jarayonlarni inobatga olgan holda, Qurolli Kuchlar qudrati, mamlakatning mudofaa qobiliyati va harbiy salohiyatini yanada oshirish hamda chegaralar xavfsizligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Bugungi kunda xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikka tahdid solayotgan xavf-xatarlarni hisobga olgan holda, davlatimiz chegaralar xavfsizligini ta'minlash samaradorligini yanada oshirish ustuvor yo'nalishlardan biridir. Zamonaviy geosiyosiy makonda qancha tendensiyalar paydo bo'layotgan, integratsiya jarayoni jadal kechayotgan bir vaqtda dunyoning eng rivojlangan davlatlari chegaralar idoralari ham boshqa subyektlar hamkorligisiz mamlakatning chegaralar xavfsizligini ta'minlay olmasligi e'tirof etilmoqda. Shu bois, dunyo miqyosida bu yo'nalishda hamkorlikni kengaytirish dolzarb bo'lib turibdi.

Jumladan, mamlakatimizda ham bu yo'nalishda muhim chora-tadbirlar ko'rilmoqda. 2023-yil 13-sentyabrda “O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida”gi qonun qabul qilinishi bu jabhadagi ishlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim huquqiy asos

quruqlikda, chegara daryolarida, ko'llar, samoviy hudud va boshqa joylarda shaxslar, transport vositalarining kesib o'tish tartibi hamda davlat chegarasi va o'tkazish punktlari rejimi, rejim talablari, ular buzilishi tushunchalari aniq belgilanib, batafsil yoritib berildi.

Bundan tashqari, hujjatda O'zbekiston fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar hamda davlat transport vositalarining chegara zonasiga va o'tkazish punktlariga kirishi (chiqishi), o'tishi, bo'lishi (yashashi), harakatlanishi tartiblari hamda davlat chegarasida, chegara mintaqasida va o'tkazish punktlarida xo'jalik va boshqa faoliyatni yuritish, xususan, dehqonchilik qilish yoki chorvachilik bilan shug'ullanishga oid qoidalar belgilandi.

Bu borada “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ham qator masalalar o'z aksini topdi. Xususan, davlat chegarasini qo'riqlash tizimiga zamonaviy texnologiyalar, kommunikatsiya vositalari va texnik (muhandislik) inshootlarini keng joriy qilish, davlat chegarasi xavfsizligini ta'minlash jarayonini sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yanada avtomatlashtirish vazifalari belgilab qo'yildi.

Qurolli Kuchlar va kuch tuzilmalari bilan hamkorlikni kuchaytirish, birgalikdagi harakatlarni samaradorligi va muvofiqdoshlik darajasini oshirish, yuqori malakali harbiy kadrlarni tayyorlash tizimini muntazam takomillashtirib borish ham muhim vazifadir. Vazirlar Mahkamasining tegishli qarori asosida oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risida nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat xavfsizlik va huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimidagi oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalari maqsadi va asosiy vazifalarini, ta'lim jarayonini tashkil etish, shuningdek, ta'lim tizimini boshqarish tartibini belgilaydi.

Qurolli Kuchlarning raqamli salohiyatini yuksaltirish va axborot xavfsizligini ta'minlash, harbiy xizmatchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish borasidagi bilim va ko'nikmalarini oshirish ham dolzarb vazifaga aylangan. Bu yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti maxsus fakulteti bazasida Mudofaa vazirligi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti tashkil etildi. Institut Mudofaa vazirligining davlat oliy harbiy ta'lim muassasasi bo'lib, sakkizta yo'nalish bo'yicha taktik bo'g'indagi ofitser kadrlar tayyorlaydi. Institutda ixtirochilikni rivojlantirish va yangi innovatsion g'oyalarni tatbiq etish maqsadida o'lita zamonaviy o'quv laboratoriyasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. E'tiborli jihati shundaki, hozirgi vaqtda oliy harbiy ta'lim muassasalarida nafaqat o'g'il bolalar, balki qizlar ham tahsil olmoqda.

Oxirgi yillarda Qurolli Kuchlarimiz harbiy xizmatchilarning rivojlangan xorijiy davlatlar oliy harbiy ta'lim muassasalarida ta'lim olishi va malaka oshirishi yo'lga qo'yildi. O'z navbatida, erishilgan kelishuvlar doirasida ayni paytda qator xorijiy davlatlar harbiy xizmatchilari Qurolli Kuchlarimizning oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qimoqda. Ichki ishlar vazirligi akademiyasida ham xorijiy davlatlar ichki ishlar organlari (politsiya) kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi joriy etildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston og'ir rivojlanish davrini yengib, kuchli mustaqil davlat sifatida yuksalayotgan iqtisodiy qur'da va har yili qudratini mustahkamlab boryapti. Bu biz uchun juda qimmatli, chunki u yangi tarixdagi eng muhim va asosiy yutuqdir.

Boshlanishi 1-betda

Davlatimiz mustaqilligining 1991–2016-yillari uch bosqichga bo'lib o'rganilgan. 2017-yildan hozirgacha bo'lgan davri barqaror iqtisodiy o'sishning yangi — to'rtinchi bosqichi sifatida baholash lozim. Ushbu bosqichda Harakatlar strategiyasi qabul qilinib, taraqqiyotimizning yangi strategik yo'nalishlari ochib berdi.

Bozor tamoyillari asosida rivojlanishga o'tishning dastlabki bosqichi (1991-1995-yillarda) mamlakatimizda YIM ishlab chiqarish 11,3 foizdan 18,5 foizgacha kamaygan. Aholi real daromadi ham shu davrda 13,2 foizdan 24,8 foizgacha pasaygan. Birinchi marta iqtisodiy o'sishga 1996-yilda erishilgan va u 1,7 foiz edi. Shu yili aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YAIM 24,1 ming so'mga teng bo'lgan. Ushbu ko'rsatkich 2016-yilga kelib (20 yildan keyin), 8 million 90 ming so'mgacha oshdi. Keyingi 6 yilda (2017-2023-yillar) esa aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YIM 2,5 barobar ko'paydi.

Barqaror iqtisodiy o'sishning sezilarli natijasi islohotlarning to'rtinchi bosqichidan kuzatila boshlandi. Buni O'zbekiston bozor iqtisodiyoti va bozor munosabatlarning jahon standartlariga mos rivojlanib borish jarayonini statistik taqqoslash orqali ko'rish mumkin. Tahlillarga ko'ra, yurtimizda yalpi ichki mahsulot (YIM) ishlab chiqarish 2012-2016-yillarda 2 barobar, 2017-2022-yillarda esa 3 barobar oshgan. 2017-2022-yillarda bir yilda o'rtacha 524,2 trillion so'mlik YIM ishlab chiqarilgan. Bu 2012-2016-yil bilan taqqoslaganda yiliga 335,3 trillion so'm ko'pdir.

Iqtisodiyotimiz tarmoqlarida yalpi qo'shilgan qiymat 2017-yilda 228,7 trillion so'm bo'lgan. Demak, barqaror rivojlanishning to'rtinchi bosqichida uchinchi bosqichning 2012–2016-yillariga nisbatan 2,8 karra ko'p YIM olingan. 2022-yilda esa bu ko'rsatkich 928 trillion so'mga teng bo'lgan yoki o'sish shu davrda 3,8 barobarni tashkil qilgan. Bu iqtisodiyotda yangi qiymat yaratish yuqori samaradorlikka ega ekanidan dalolat. Ushbu yutuqlar keskin raqobat sharoitida sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasiga berilayotgan e'tibor natijasidir.

O'zbekistonda keyingi 6 yil davomida sanoat ishlab chiqarishi 148,8 trillion so'mdan 551 trillion so'mga yoki 3,7 karra, qishloq xo'jaligi 148,2 trillion so'mdan 347,6 trillion so'mga yoki 2,4 barobar oshgan. Bunday o'sish sur'atiga ushbu sohalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hamda mehnat unumdorligi, resurs tejamliligini oshirish tufayli erishilmoqda.

Iqtisodiyotimizga investitsiya kiritish 2012–2016-yillarda 2,1, 2017–2022-yillarda esa 3,7 barobar oshgan. Pandemiya davri keyingi 2 yilda iqtisodiyotga qariyb 510 trillion so'm miqdorida investitsiya jalb qilingan. Shundan 42,5 foizi yoki 216,8 trillion so'mi xorijiy investitsiya resurslaridir. Ushbu raqamlar yurtimizning barqaror rivojlanishi, kuchli iqtisodiyot uchun munosib poydevor yaratilganidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi eksporti 2022-yilda 2020-yildagiga nisbatan 1,3 karra oshishini ta'minladi va o'sish sur'ati shu davrdagi 13,5 foiz zarardan 15,9 foiz foydagacha ko'tarildi. Koronavirus pandemiyasidan keyingi bunday o'sishni mamlakatimizda tashqi savdo munosabatlarida qo'lga kiritilgan yutuqlardan biri sifatida baholash o'rindir.

Yurtimizda o'tgan yillarda aholi real daromadi muttasis o'sdi. 2012–2016-yillarda ushbu ko'rsatkich 1,9-marta o'sgan bo'lsa, 2017–2022-yillarda 2,2 barobar oshgan. Aholi jon boshiga real daromad shu davrda 6,7 million so'mdan 16 million so'mga yoki 2,4 karra ko'paygan. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmat hajmi shu davrda 8,1 milliondan 10,3 million so'mga oshgan.

Iqtisodiy faol aholi 2022-yilda 15 million kishini tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2010-yilda 12,7 millionga teng bo'lgan. Ish bilan band odamlar soni shu davrda 11,6 milliondan 13,5 million kishiga oshgan. Band aholining 23 foizi davlat muassasalarida, 77 foizi esa nodavlat sektorda ishlaydi. Bu bozor iqtisodiyoti sharoitida ijobiy natijadir.

Ta'lim sifatini oshirish — asosiy vazifa

Mamlakatimiz ta'lim tizimi o'zaro bog'liq besh yo'nalishni o'z ichiga oladi. Ularning har biri inson sa-



Bozorboy BERKINOV, Institutsonal va iqtisodiy tadqiqotlar markazi direktori, iqtisodiyot fanlari doktori

lohiyati va bilimi ro'yobga chiqishiga xizmat qilmoqda. Shu bois, Prezidentimiz ta'lim sifatini oshirishga bosh maqsad maqomini berdi. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida ta'lim yo'nalishlarini chuqur isloh qilish va sifatini yangi pog'onaga olib chiqish uchun xizmat qiluvchi munosib shart-sharoit yaratishga e'tibor qaratilgan, ularni bajarishga zarur sharoit ko'zda tutilgan.

Fuqarolar uchun byudjet statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, maktabgacha va maktab ta'limiga, oliy ta'lim va innovatsion rivojlanishga 2023-yil uchun byudjetdan 44,7 trillion so'm ajratilgan. Bu ko'rsatkich 2022-yilda 37,2 trillion so'm bo'lgan.

Ushbu raqamlar davlatimizda ta'lim sifatini oshirish va uni xalq ehtiyojlariga yanada yaqinlashtirish, bir-birini to'ldiruvchi hamda muqobil bilim olish va ixtisosliklarga ega bo'lish imkoniyatini yanada kengaytiradi.

Strategiya maktabgacha va o'rta ta'lim tizimini sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish uchun bolalar bog'chalar bilan to'liq qamrab olinadi. Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari 100 foiz kompyuterlashtiril-



di, bog'cha va maktablar toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlanadi. Uzoq hududlardagi maktab o'quvchilari uchun bepul avto-bus qatnovi yo'lga qo'yiladi. Bular farzandlarimizning puxta bilim olish imkoniyatini oshirish uchun yaratilayotgan sharoitning boshlang'ich yo'nalishlaridir.

Shuningdek, pedagoglar ish haqini 2 barobar ko'tarish, pedagogik ta'limda olis huddudlar va ehtiyoj yuqori yo'nalishlarda kadrlar tayyorlash davlat granti asosida amalga oshiriladi. Bular o'qituvchilik kasbining nufuzi yanada yuqori bo'lishini ta'minlaydi, pedagoglar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuqalaydi.

Maktab ta'limining uzviy davomi sifatida professional ta'limga qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, yangi fundamental va amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, yoshlarning ilmiy izlanishlari hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilgan.

Strategiyaga binoan, 700 ta kasbiy ta'lim tashkilotida o'qish sifati va moddiy-texnik baza takomillashtiriladi, 14 ta hududiy kasbiy tayyorgarlik markazi tashkil etiladi. Bu sohada ta'lim sifatining oshishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish diqqat-e'tibordagi turgan bosh masala. Shu nuqtayi nazaridan, strategiyada 9 ta ustuvor vazifa shakllantirilgan. Bunga ko'ra,

yoshlarni oliy ta'limga qamrovini 50 foizga olib chiqish, o'rta ta'limni oliy ma'lumotli pedagog kadrlar bilan to'liq ta'minlash,

30 ta oliy ta'lim dasturini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, nufuzli oliy ta'lim muassasalarining yetakchi 500 taligi va 1000 taligi reytingiga kiritish, ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, talabalar uchun yangi o'quv joylari va yotoqxonalar qurish shular jumlasidan.

Fundamental tadqiqot olib borishga 3 trillion so'm, amaliy tadqiqotlarga esa 4 trillion so'm yo'naltiriladi, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqi 2 barobar oshiriladi. Bular strategiyaning tamol toshi sifatida ta'lim, ilm-fan hamda innovatsion rivojlanishga yirik investitsiyalar kiritish ko'zda tutilganini ko'rsatadi.

Ushbu xarajat evaziga strategiya doirasida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanma yaratiladi, 850 turdagi innovatsion mahsulot ishlab chiqish, qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, transport hamda sanoat sohaslarida 8 ta ilmiy ishlab chiqarish klasteri yaratish ko'zda tutilgan. Ilm-fan, ta'lim-tarbiya va innovatsiyalar yo'lidagi islohotlar yangi O'zbekistonda barpo etish va uni kuchli iqtisodiyotga ega davlatlar qatoriga olib chiqishda asos vazifasini o'taydi.

Sog'liqni saqlashning yangi bosqichi

Sog'liqni saqlash tizimidagi hozirgi islohotlar ko'lami hamda ahamiyati bilan ta'lim sifatini oshirish maqsadiga hamohang. Shu bois, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida aholi salomatligini asrash, og'ir kasallarni davlat kafolati bilan davolashga birinchi navbatda e'tibor berildi. Unga ko'ra, odamlarning o'rtacha umri 78 yoshga uzaytirish, birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini kengaytirish, bolalar irsiy kasalliklarini davolash samaradorligini oshirish, ona va bola o'limini qisqartirishga doir zaruriy choratadbirlar belgilangan. Mamlakatimizda inson hayoti uchun eng xavfli bo'lgan yurak-qon tomir, qon diabet, yuqumli xastaliklar, shuningdek, saratonni erta diagnostika qilish va davolash, bemorlarni sog'lom hayotga qaytarishning yangi usullarini qo'llash insonparvarlikni ifoda etuvchi ulug'vor yo'llardir.

Buning jirosini ta'minlash uchun barcha imkoniyat bor. Shu bilan birga, yangi poliklinika, shifoxonalar, tibbiy ilmiy makazlar tashkil qilish, sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etishga inson sog'lig'ini saqlashning strategik vazifasi sifatida qaramoqda.

Strategiyada tibbiyot sohasidagi islohotlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun ajratiladigan yillik mablag' hajmi ikki barobar oshirishni belgilangan. Shuningdek, fuqarolar byudjeti statistikasi ma'lumotlariga ko'ra, sog'liqni saqlashga 2023-yil uchun davlat byudjetidan 3,7 trillion so'm ajratilgan. Bu 2022-yildagiga qaraganda 23 foiz ko'p. Ushbu ko'rsatkichlar soha rivojini yangi bosqichga ko'tarishda muhim moliyaviy dastak bo'lib xizmat qiladi.

Sog'liq — xalq boyligi, uni saqlash uchun chuqur bilim, katta tajriba va salmoqli xarajat talab etiladi. Sog'liqni saqlash tizimi insonning dunyoga kelishi va salomat o'sib ulg'ayishini ta'minlaydi. Sifatli ta'lim orqali innovatsiya va yangi texnologiyalar yuzaga keladi. O'z navbatida, yangi texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiyotning yanada faol o'sishi va natijada jamiyat a'zolarining farovonligi yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Demak, mamlakatimizda sog'liqni saqlashni ta'lim tizimi bilan hamohang yangi bosqichga ko'tarish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga keng yo'l ochadi.


Pirovard maqsad

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, eng avvalo, tadbirkorlik rivoji uchun zarur shart-sharoit yaratilishi bilan bog'liq. Prezidentimiz tadbirkorlarga bilan o'tkazgan ochiq muqobilatga ushbu sohada erishilgan yutuqlarni ijobiy baholab, navbatdagi muhim yangi tashabbuslarni xalqimiz e'tiboriga havola etdi.

Tashabbuslarning birinchi yo'nalishida mahalla va tumanda yangi mikro-tadbirkorlik muhiti yaratiladi. Asosiy e'tibor kichik biznesning moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish hamda har bir hududda kichik biznes markazlari tashkil etishga qaratiladi. Ushbu sa'y-harakatlar tufayli mahallada oilaviy mikro-tadbirkorlik kichik biznes darajasiga ko'tariladi. Bu har yili yangi kichik korxonalar oyoqqa turishi, o'rta biznes subyektlari shakllanishi va ish o'rnlari yaratilishiga olib keladi.

Mamlakatimiz iqtisodiy rivojini yuqori sifatlil mahsulotlar eksportisiz tasavvur etish mumkin emas. O'zbekiston raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga chiqarishda samarali natijalarga erishdi. Eksportchi korxonalar soni keyingi 4 yilda 4,5 mingdan 7,2 mingga ko'paydi, mahsulotlar turi 1,5 mingdan 3 mingga oshdi. Ayni paytda mahsulotlarimiz 164 mamlakatga sotilmoqda. Bu o'tgan 4 yildagiga nisbatan 25 taga ko'p. Ushbu holat yurtimizda sifatlil mahsulotlar bilan bozorga kirish, unga yangi brendlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ko'p qirrali islohotlar makroiqtisodiy barqarorlikka erishish, institutsional islohotlarni izchil davom ettirish, tadbirkorlik rivojini yanada yuqori bosqichga olib chiqish, aholi farovonligi va daromadlarini oshirishga xizmat qiladi.



TARAQQIYOT YO'LI

INSON QADRI ULUG'LANGAN JAMIYAT

AYOLGA CHINAKAM QUVONCH ULASHADI

“Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini oshirish, rahbar ayollar safini yanada kengaytirish, yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yosh qizlarni rahbarlikka tayyorlash, gender tenglik muammolarini bartaraf etish uchun xizmat qilishga qaratilgan O'zbekiston yetakchi ayollari muloqoti platformasi tashkil etildi.



Nodira EGAMBERDIYEVA,
“Oila va xotin-qizlar”
ilmiy-tadqiqot instituti
direktori, pedagogika fanlari
doktori

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida so'zlagan nutqida ham xotin-qizlar masalasiga to'xtalib, gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini davom ettirish yangi O'zbekiston uchun muhim ustuvor yo'nalish ekanini bildirdi. Xususan, xotin-qizlarning jamiyat va davlat boshqaruvida faol ishtirok etishi dolzarb ekanini, milliy siyosatimiz markazida turadigan ezuq maqsad oillarar mustahkamligi, ayollarimizning huquqiy himoyasi va osoyishta hayotini ta'minlashdan iborat bo'lishi ta'kidlandi.

Gender tenglikka erishish borasidagi tizimli ishlar, jumladan, o'tgan yili oliy-gohlarga qabul qilingan talabalarning 49 foizi qizlar ekanini, xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ulushi esa birinchi marta 35 foizga yetgani, ayollar va voyaga yetmaganlarni zo'ravonlikdan himoya qilish maqsadida alohida qonun qabul qilinishi qayd etildi.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasi bu boradagi ezuq ishlarni yangi bosqichga ko'tarishda muhim dasturlamal bo'lmoqda. Mazkur hujjatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash borasida aniq vazifalar belgilandi.

Jumladan, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini yanada oshirish, jamiyatda xotin-qizlarga ta'ziy va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, “Ayollar daftari” bilan manzilli ishlarining shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo'yicha jamoatchilik nazoratini o'rnatish kabi vazifalar aniq ko'rsatilgan.

Jamiyatda gender tenglikni ta'minlash, xotin-qizlar ehtiyojlarini ro'yobga chiqarish, imkoniyatlarini kengaytirish, muammolarini hal etish, ijtimoiylashuvini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor vazifalari qatoridan o'rin egallagan.

Yurtimizda davlat va jamiyat hayotiga daxildir qarorlarni qabul qilish jarayonida xotin-qizlar ishtiroki sezilarli darajada ortgan. Jumladan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 33 foizi, Senat a'zolari hamda mahalliy kengashlar deputatlarining 25 foizi xotin-qizlardir. Ushbu ko'rsatkichlar orqali Parlamentlararo ittifoq tomonidan yuritiladigan “Siyosatdagi ayollar” jahon reytingining “Parlamentdagi ayollar” qismida O'zbekiston 130-o'ringan 51-o'ringa ko'tarildi. Shuningdek, shahar, tuman hokimi, vazir, elchi kabi mas'ul lavozimlarga ayollar tayinlanayotgani ularga bo'lgan ishonchning ortib borayotganini ko'rsatadi.

Xotin-qizlarning tadbirkorlik sohasidagi ulushi 37 foizga, siyosiy partiyalarda 47 foizga yetdi. Tibbiyotda 77 foiz, ta'lim sohasida 74 foiz, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida 46 foizni tashkil etmoqda. Ikki mingga yaqin xotin-qiz davlat va jamoat tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarida xizmat qilmoqda.

Bu borada ularning ijtimoiy-siyosiy faolligi qo'llab-quvvatlab kelinmoqda. Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbus-siyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng



korlik ko'rsatish bilan birga farzandlarini barkamol etib tarbiyalab voyaga yetkazgan ayollarga, jumladan, uy bekalariga ham beriladigan “Mo'tabar ayol” ko'krak nishoni ta'sis etildi. O'tgan davr mobaynida 1000 dan ortiq faol ayol ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.

Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti 2019-yildan boshlab har yili Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan ikki nafar talabgorga berilishi belgilandi.

Xotin-qizlarni ilm-fan sohasiga jalb qilish borasida sezilarli natijalarga erishildi. Shu tufayli xotin-qizlarimiz ilm-fan taraqqiyotining barcha sohalarini rivojiga munosib hissa qo'shib kelmogda. Bugun respublikada 5 akademik, fan doktori darajasiga ega 700 dan ziyod olim ayol fan tarmoqlarining turli sohalarida ilmiy faoliyat yuritmoqda.

Gender tenglikni ta'minlashning institutsional tuzilmalari tashkil etildi. Parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi, Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng

huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat kengashlari, Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi tashkil etildi. Oila va xotin-qizlar qo'mitasi, barcha vazirlik va idoralarda gender tenglik masalalari bo'yicha maslahat kengashlari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Gender tenglikni ta'minlashning huquqiy asoslari takomillashtirilib, uning asosiy strategiyasi ishlab chiqildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlash masalasi e'tibor markazida bo'ldi. Unga ko'ra, homidorligi yoki bolasi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ayollar ishga qabul qilinishi rad etish, ishdan bo'shatish va ish haqini kamaytirish taqiqlandi. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanini, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek, boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlashi belgilandi.

Yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlashga doir 40 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, amaliyotga tatbiq etildi. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi, “Xotin-qizlarni ta'ziy va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonunlar qabul qilindi. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarida xotin-qizlar hamda erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi amalga oshirib kelinmoqda.

Xotin-qizlarga qarshi ta'ziy va zo'ravonlik borasida javobgarlik mexanizmlari kuchaytirildi. Joriy yilda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini iшонchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilib munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun qabul qilinishi ham bu borada yana bir

muhim qadam bo'ldi. Bu qonun bilan milliy qonunchiligimizga xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohada o'z huquq va manfaatlarini amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi, qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni nazarda tutuvchi, bolalar masalalari bo'yicha komissiyalar faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga oid o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, oilaviy (maishiy) zo'ravonlik, shaxsning sha'nini va qadr-qimmatini kamsituvchi hamda inson hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik belgilandi. Qonun bilan 30 kungacha uzaytirish mumkin hisoblangan himoya orderi amal qilish muddatini 1 yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan uzaytirish imkoniyati yaratildi.

Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida “BMT — Xotin-qizlar” tuzilmasi bilan hamkorlikni yanada kengaytirishni alohida tilga oldi. Ayollarning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish masalalarini muhokama qilish va tajriba almashish uchun kelgusi yil O'zbekistonda Osiyo xotin-qizlari forumini o'tkazishni taklif etdi.

So'nggi yillarda gender tenglik borasidagi xalqaro munosabatlarga va O'zbekistonning xalqaro hukufuzini oshirish masalalariga ham katta e'tibor berib kelinmoqda. Ik bor Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti tashkil etildi. Gender masalalari yuzasidan O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari orasida yuritayotgan ilg'or siyosati natijasida 2021-yilda birinchi bo'lib muloqotga O'zbekiston raislik qildi. 2022-yil Toshkent shahrida Parlamentlararo ittifoqqa a'zo davlatlar parlamentlari ayol rahbarlarining 14-sammiti o'tkazildi.

Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini oshirish, rahbar ayollar safini yanada kengaytirish, yetakchilik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yosh qizlarni rahbarlikka tayyorlash, gender tenglik muammolarini bartaraf etish uchun xizmat qilishga qaratilgan O'zbekiston yetakchi ayollari muloqoti platformasi tashkil etildi.

Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksida O'zbekiston xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo'yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan davlatlar qatoriga kirdi. Prezidentimizning tegishli farmoniga asosan, “Ayollar, biznes va qonun” indeksi mamlakatimiz uchun ustuvor bo'lgan xalqaro reyting va indekslar ro'yxatiga kiritildi. Bunga mas'ul davlat organi etib Oila va xotin-qizlar qo'mitasi belgilandi.

Gender tenglik siyosatida ilmiy tadqiqot ishlarini samarali olib borish va uning ilmiy asoslangan g'oyalari hayotga tatbiq etish muhim yo'nalishlardan biridir. Bu borada “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institutida qator ilmiy ishlar qilinmoqda. Xususan, xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, ayollarni

qo'llab-quvvatlash, huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida 1 ta fundamental, 2 ta innovatsion va qisqa muddatli 10 ga yaqin ilmiy-amaliy loyiha bajarildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda gender muammolarini o'rganish, targ'ib etish, monitoringni yuritish bo'yicha “uzgender.uz” elektron platformasi ishlab chiqildi. Platformada ilmiy-amaliy tadqiqotlar, manbalar, tahliiliy ma'lumotlar, onlayn o'quv kurslar, raqamli kutubxona, gender bo'yicha multimedia mahsulotlari jamlangan. Shuningdek, portlarda gender indeks va reytinglar bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasi shakllantirildi.

Institutda o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlardan biri global gender indeks reytinglarida O'zbekistonning o'rini mustahkamlash masalalariga bag'ishlandi. Tadqiqot ishi doirasida Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun” indeksi, Jahon iqtisodiy forumining “Global gender tafvuti indeksi”, BMT Taraqqiyot dasturining “Gender tengsizlik indeksi”, Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining “Ijtimoiy institutlar va gender indeksi” hamda boshqa indekslarning baholash metodologiyalari o'rganildi va O'zbekistonning o'rini yaxshilash borasida ishlar qilindi.

“Global ayollar, tinchlik va xavfsizlik” indeksining asosiy indikatorlari bo'yicha O'zbekiston dunyo mamlakatlari orasida 74-o'rinni egalladi. Open Data Watch tashkilotining 2022-2023-yilgi hisobotida O'zbekiston “Ochiq gender ma'lumotlari indeksi”da 69,7 ball to'plagan holda jahondagi eng yaxshi 20 ta mamlakat orasidan joy oldi. Shuningdek, inson taraqqiyoti indeksi tarkibidagi kompozit indekslardan hisoblanuvchi “Gender tengsizlik indeksi”, “Gender rivojlanish indeksi”, “Gender ijtimoiy normal indeksi” bo'yicha ham yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Genderga oid mazkur indekslarni tahlil qilish natijasida tegishli idora va tashkilotlar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Inson huquqlari kafolatlari ta'minlangan demokratik va fuqarolik jamiyati sari dadil odimlayotgan mamlakatimizda ayollarimiz davlat va jamiyat qurilishidagi ishtiroki muhim. Shu nuqtayi nazaridan, xalqaro hamjamiyat tomonidan mazkur yo'nalishdagi ishlar qo'llab-quvvatlanishi O'zbekistonning dunyoda yanada xalqchil, demokratik davlat sifatida tan olinishiga imkon yaratadi. Shu bois, jamiyatda xotin-qiz va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarini yaratishda ilmiy asoslangan g'oyalar, takomillashtirilgan qonunlar hamda samarali amaliy chora-tadbirlarni izchil davom ettirish dolzarb bo'lib qolaveradi. Zero, ayollarimizning baxti xalqimiz, jamiyatimizning baxtidir.

NAZORAT

ISTE'MOLCHI MADANIYATI

Sog'lom raqobat va iqtisodiy rivojlanishda muhim jihat

Otabek USMONOV,
Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi raisi maslahatchisi



Hammamiz iste'molchimiz. Kundalik hayot tarzimizda savdo-sotiq munosabatlarida ishtirok etamiz, turli xizmatlardan foydalanamiz. Lekin oramizda shunday insonlar borki, mazkur jarayonlarda qonunbuzilish holatlari, kamchiliklarga duch kelsa-da, qayerga murojaat qilishni bilmaydi yoki bilsa ham ortiqcha tashvish, deya indamay ketaveradi.

Aslida, bunday bo'lishi kerak emas. Rivojlanishni ko'zlagan jamiyatda jamoatchilik nazorati, o'z haq-huquqlarini talab qilish istagi birlamchi turishi kerak. Mana shunday faollik evaziga Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi joriy yilning yanvar-avgust oylarida raqobatni ta'minlash, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha sud instansiyalarida da'vogar va arizachilarda javobgar sifatida 23 ta sud ishidagi ishtirok etdi.

Bu kammi yoki ko'p? Javobgar nuqtayi nazaridan qaralsa, ko'pdek, iste'molchi nazarida esa kamdek tuyuladi. Muhimi, jarayon mavjudligida, o'z huquq va manfaatlarini doirasida sog'lom fikr hamda raqobatning yuzaga chiqayotganida. Binobarin, sud ishlarining 8 tasi to'liq, 6 tasi qisman qo'mita foydasiga hal etildi.

Shu o'rinda fikrimizni misollar bilan davom ettirsak. Masalan, qo'mitaga O'zbekiston temir yo'llari AJ tomonidan aktuar xizmatni xarid qilish uchun

“etender.uzex.uz” elektron platformasi orqali o'tkazilgan tender savdolaridan norozilik bilan bog'liq murojaat kelib tushdi. Murojaat o'rganib chiqilganda, haqiqatan, “Raqobat to'g'risida”gi qonun talablarini buzilishi aniqlandi.

O'tkazilgan tenderda buyurtmachi tomonidan ishtirokchilardan biriga boshqa ishtirokchilarga nisbatan imtiyozli shart-sharoit yaratib berilgani ma'lum bo'ldi. Ushbu holat bo'yicha qo'mita tomonidan 2022-yil dekabr oyida “O'zbekiston temir yo'llari” AJga qonun buzilishi holatini bartaraf etish va kelgusida bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rsatma berilgan.

Biroq “O'zbekiston temir yo'llari” AJ qo'mitaning qaror va ko'rsatmasidan noroz bo'lib, uni haqiqiy emas deb topish haqidagi shikoyati bilan Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga murojaat qilgan. Sud tomonidan esa ushbu murojaatni qanoatlantirish rad etilgan va qo'mitaning qaror va ko'rsatmasi o'z kuchida qoldirildi.

“O'zbekiston temir yo'llari” AJ birinchi

instansiyasining sudning ushbu hal qiluv qaroridan noroz bo'lib Toshkent shahri ma'muriy sudi va Oliy sud Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atiga qilgan apellyatsiya hamda kassatsiya shikoyatlarini natijasi ham xuddi shunday bo'lgan, ya'ni ularning talabini qanoatlantirish rad etilgan.

Yana bir misol. Qo'mitaning Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan “Musaffo obi hayot” MCHJning ichimlik suv va og'ova xizmatlari hamda isitish tizimi tariflari asosli shakllantirishi, qo'llanishiga rioya etilishi yuzasidan o'rganish o'tkazilganda, bu yerda ayrim kamchiliklar borligi ayon bo'lgan. Ya'ni “Musaffo obi hayot” MCHJ tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni deklaratsiya qilish (tasdiqlash), kelishish va belgi-

lashda tegishli organlarga hamda mahalliy davlat hokimiyati organlariga ishonchsiz ma'lumotlar taqdim etilgan. Mazkur holat bo'yicha qo'mitaning viloyat hududiy boshqarmasi tomonidan 2022-yil noyabr oyida “Musaffo obi hayot” MCHJga qonun buzilishi holatini bartaraf etish va kelgusida bunday holatlarga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartiblar buzilishi ortidan olingan jami 1 milliard 318 million so'mdan ortiq pul mablag'ini iste'molchilarga qaytarish, ularni aniqlash imkoni bo'lmagan taqdirda, ixtiyoriy ravishda davlat byudjetiga to'lash bo'yicha ko'rsatma berilgan.

Ortiqcha chiqim hech kimga yoqmaydi, albatta. Shu jumladan, “Musaffo obi hayot” MCHJga ham. Shu bois, jamiyat mutasaddilari ushbu qaror va ko'rsatmadan noroz bo'ladi. Ular tomonidan qilingan shikoyat qo'mitaning apellyatsiya kengashi qarori bilan qisman qanoatlantirildi: asossiz olingan pul miqdori 1 milliard 2 million 789 ming 746 so'm deb topildi.

Lekin MCHJning bundan ham ko'ngli to'lmay. Toshkent tumanlararo ma'muriy sudiga ariza topshiradi. Arizani qanoatlantirish esa hal qiluv qarori asosida rad etiladi.

Shu bilan birga, ayrim sudlar tomonidan Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi qarorlari ham bekor qilinmoqda. Masalan, qo'mitaning Namangan viloyati hududiy boshqarmasi tomonidan neftni qayta ishlash zavodlari hamda neft bazalari tomonidan dizel (EKO dizel) yoqilgisi fermer



xo'jaliklariga qonunchilik talablariga muvofiq sotilishi yuzasidan o'rganish o'tkazilgan. O'rganish natijasida “To'raqo'rg'on neft bazasi” MCHJ tomonidan dizel yoqilgisi 52 million 400 so'mdan yetkazib berilishi lozim bo'lsa-da, ko'plab holatlarda belgilanganidan yuqori narxlarda yetkazib berilish holatlari aniqlangan.

Ushbu holat yuzasidan qo'mitaning tegishli tartibdagi qarori bilan “O'zbekneftgaz” AJ va “To'raqo'rg'on neft bazasi” MCHJ tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 28-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ga tartibga solinadigan narxlar (tariflar)ni shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash hamda ularning qo'llanishini davlat tomonidan nazorat qilish tartibi to'g'risidagi nizom talablarini buzilgan deb topilgan.

Qo'mita qarori bilan ushbu MCHJ huquqbuzarlik sodir etilishi natijasida asossiz olingan 2 milliard 752,1 million

so'mni iste'molchilarga, birja savdolarida dizel yoqilgisi boshlang'ich narxi oshirib qo'yilishi natijasida asossiz olingan 826,5 million so'm mablag'ini esa davlatga ixtiyoriy ravishda to'lash (qaytarish) belgilangan. Bu holatda “To'raqo'rg'on neft bazasi” MCHJning qo'mita qarorini haqiqiy emas, deb topish to'g'risidagi arizasi Toshkent tumanlararo ma'muriy sudning 2023-yil 6-yanvardagi hal qiluv qarori bilan qanoatlantirildi. Bu ish keyinchalik Oliy sudgacha borib, aloqibat jamiyat foydasiga yechim topdi.

Umuman olganda, bu kabi holatlar mamlakatimizda raqobatni ta'minlash, iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayotgani, jarayon tobora faol bo'lib borayotgani anglatiladi. Bu faollik esa, yuqorida qayd etganimizdek, foyda keltiradi, aslo zarar emas. Shunday ekan, iste'molchi sifatida faol bo'lishdan tortinmang.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASINING 80 YILLIGIGA

BIRINCHI BO'LIH

mashaqqati va baxti

Bilim tufayli odam buyuklashib, shuhrat topadi.

Yusuf Xos Hojib

Nuriddin OCHILOV, jurnalist

Bunday baxt mingdan bittaga, balki milliondan bittaga nasib etar. Chunki birinchi bo'lish oson emas. Ayniqsa, ilm-fanda birinchi bo'lish metin irodoyu kunning tunga ulab tinimsiz o'qib-o'rganishni, manbalarni tahlil qilib, asosli xulosa chiqarishni, haqqoniylik va adolat me'yorlariga amal qilishni talab etadi. Bunday baxtga og'irning ostidan yurishni odat qilgan, halol mehnat mevasiga ko'nikkan, qalbi buyurgan ishni qilishga o'rgangan, o'z ishini jonkuyar va fidoyisi bo'lgan, yo'lga to'g'onoq bo'ladigan bo'ronu to'fonlardan cho'chimaydigan mard va qat'iyatli, qanoatli kishigina muayassar bo'lishi mumkin.

Shuni o'zgaracha bir g'urur bilan baralla aytilish mumkinki, qanday zamon, qanday tuzum va qanday sharoit bo'lishidan qat'iy nazar, ulug' allomalarimiz boshlagan buyuk yaratuvchanlik hech qachon to'xtagan emas. Ular hamisha xalqimizning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shib, yangi-yangi kashfiyotlarga, bunyodkorlik ishlariga ilhomlantirib, yangi-yangi "birinchi"larni kashf etib kelgan. Bu sa'y-harakat hatto Sohibqiron Amir Temurni bosqinchi, qonxo'r deb qoralangan, u haqda gapirish jinoyat hisoblangan sho'rolar davrida ham to'xtamagan. Buyuk tariximiz va milliy qadriyatlarimizni har tomonlama chuqur o'rganish orqali haqiqatni oshkor qilishga va bundan yangi avlodni voqif etishga bo'lgan azmu qaror aslo so'ngani yo'q. Aks holda, kimsan, Ibrohim Mo'minov boshida tegirmon toshi aylanshini bila turib, qizil saltanatning eng qaltis bir paytida Amir Temur haqidagi haqiqatni ro'yobga chiqarish uchun astoydil bel bog'larmidi? Sovetlarning dahshatli bir zamonida-ya?! O'sha davrda juda xavfli va xatari bo'lgan bunday xayrli ishga qo'l urish uchun birgina istak va jur'atning o'zi kifoya emasligini, bu hayot-mamot, ya'ni kundaga bosh qo'yish bilan barobar ekanini, kerak bo'lsa, adolat uchun shunga tayyor turish lozimligini-chi, bilarmidi? O'lasi, bola-chaqasi taqdiri-chi? Bu haqda do'ppini olib qo'yib, obdan o'yab ko'rganmikan? O'yagan! O'ylaganda ham tarozining bir pallasiga Sohibqiron haqidagi tarixiy dalillarga asoslangan haqiqatni, ikkinchisiga esa qizil saltanat siyosatini qo'yib, ko'p va xo'b o'yagan. Lekin bu uzoqqa cho'zilmagan. Vaqt kutib turmasligini bilgan olim birovga lom-mim demay, akademiya kutubxonasiga qatnab, kerakli, ammo taqiqlangan kitoblarni mutolaa qilishga kirishadi.

Ibrohim Mo'minov Shofirkon tumanining Tezguzar qishlog'ida 1908-yilning 7-noyabrda dehqon oilasida tavallud topgan. Avval qishloq maktabida, so'ng Buxorodagi Maorif institutida, keyin Samarqand pedagogika akademiyasida tahsil olgan. Talabalik burchini bajarish barobarida o'qituvchilik ham qilgan. Uning haqiqiy pedagog va rahbarlik faoliyati Samarqand Davlat universiteti tashkil topgan 1933-yildan boshlangan. U bu bilim dargohida dekan va o'qituvchi lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi. Ayni shu yillari yoshligidan mehr qo'ygani ijtimoiy fanlar, ayniqsa, tarix va falsafani qunt bilan o'rganishga, o'qigan har bir asarining mohiyatini teran anglashga harakat qilib, shu jarayonda o'zi ham bir qator ilmiy maqolalar yozdi.

O'zimizdagi falsafiy tafakkurni tadqiq etish uchun Qadimgi yunon, Ovro'po va ayniqsa, Gegel falsafasini chuqur o'rganish zarur degan qarorga kelib, vaqtni boy bermay, mutolaa sho'ng'iydi. Nemis falsafasining buyuk namoyandasi Gegel

asarlarini sinchkovlik bilan o'rganadi. Bu juda qiyin va murakkab bo'lsa-da, Ibrohim Mo'minov uni uddaladi va Gegel falsafasining tub-tubigacha yetishga harakat qildi. So'ng Gegelning dialektika va metafizika haqidagi o'yalarini tahlil etdi. Bu boradagi yetti-sakkiz yillik mashaqqatli mehnat 1941-yilda nomzodlik dissertatsiyasining muvaffaqiyatli himoyasi bilan yakun topadi.

Yosh olim Ibrohim Mo'minovning mazkur ilmiy tadqiqoti sobiq ittifoqning o'sha paytdagi nomdor faylasuflari tomonidan yuksak baholanib, Gegel falsafasining hozirga qadar muammo bo'lib kelayotgan ko'pgina qirralarini ilmiy jihatdan haqqoniy tahlil qilib berilgan tadqiqot, deya e'tirof etiladi. Ibrohim Mo'minov falsafa fanini o'qitish sifatini yuqori darajaga ko'tarish uchun o'quv qo'llanmalari, dasturlari va ma'ruza matnlarini yaratishga kirishib, tuzilgan ishchi guruhiga rahbarlik qiladi. Shu bilan birga, davom ettirishi shart bo'lgan ilmiy ishi mavzusini sharq falsafasi daholaridan biriga qaratadi.

Hindistonda tug'ilib, o'sha yerda yashab, ijod qilgan, asli o'zbekning barlos urug'idan bo'lgan Mirzo Abdulqodir Bedil falsafiy tafakkurini o'rganishga kirishdi. Bedil asarlari nafaqat Hindistonda, balki Markaziy va Janubiy Osiyo mamlakatlarida ham keng tarqalgan va unga katta shuhrat keltirgan bo'lsa-da, mutafakkir shoir haqidagi ma'lumotlar juda taqchil bo'lib, birlari ham arab alifbosisida fors tilida yozilgan. Ibrohim Mo'minov esa yoshligida arab tilini puxta o'rgangan, bu tilidagi asarlarni bemalol o'qir va ma'noma-mazmunini tushunishda



qiyalmas edi. U Bedil falsafiy tafakkuri haqida ma'lumot beruvchi manbalari deyarli yo'qligini inobatga olib, shoirning asarlarini birma-bir diqqat bilan o'rganadi. Bungacha



Bedil falsafasi tadqiq etilmagan, bu borada ham birinchi qadamini Ibrohim Mo'minov qo'ygan edi. Uning ta'kidlashicha, Bedilning inson haqidagi falsafasi faqat ijobiy ta'riflardan iborat emas. U insonning fazilatlari bir olam bo'lsa, illatlari ikkinchi bir olamdird, deb tushunadi. Bedil insondagi yaxshiliklarni ta'kidlab, yomonliklarini bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Faylasuf nuqtayi nazarining muhimligi shundaki, u kishilarga irqiy, milliy, diniy e'tiqodidan qat'i nazar, har bir inson hurmat va ehtiromga sazovorligini naql qiladi. Odamzod va bashariyatga o'z muhabbati, mehribonligini ifodalab, insonni Hazrat deb ataydi. Ayni vaqtda har bir inson o'z vatanining sodiq farzandi, o'z elining g'amxo'ri bo'lmog'i lozim, deydi. Insonga ana shunday munosabatda bo'lmaganlarni qattiq qoralaydi. "Kimki Hazrati Insonning hurmat-ehtiromga sazovorligini tan olmasa, u mal'undir", deydi. Sharq falsafasi tarixida ilk bor yangi qo'riq ochishga



muvaffaq bo'lgan olimning ilmiy jamoatchilik tomonidan yuksak baholangan va ilmiy kashfiyoti ikki marta o'zbek tilida va ikki marta rus tilida kitob holida nashr etildi.

Ibrohim Mo'minov boshqa mavzu va yo'nalishlar bo'yicha ham ilmiy tadqiqotlar olib bordi. Chunoschi uning 1976-1977-yillarda "O'zbekiston" nashriyotida chop etilgan to'rt jildidan iborat sakkon bosma ta'biqlik tanlangan asarlarining to'rtinchi jilidida keltirilgan ilmiy tadqiqot bibliografiyasi bilan tanishgan kishi bunga to'la ishonch hosil qilishi mumkin. Mazkur bibliografiyani tuzuvchilarning fikriga ko'ra, unga olimning 1933-1976-yillar oraliqidagi ilmiy tadqiqotlarining eng muhimlari kiritilgan. Ularning umumiy soni 165 ta bo'lib, 20 tasini monografiya va kitoblar, 42 tasini to'plamlar, 19 tasini risolalar, qolganlarini gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalar tashkil etadi. Bibliografiya ro'yxatidagi "XIX asrning oxiri, XX asrning boshlarida O'zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan" deb nomlangan yirik tadqiqot doktorlik dissertatsiyasi bo'lib, uni muallif 1950-yilda muvaffaqiyatli himoya qildi va falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olishga erishdi.

1943-yil O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashkil etilib, uning ta'is yig'ilishida Ibrohim Mo'minov akademiyaning muxbir a'zosi etib saylanadi. Sadriddin Ayniy, Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Izzat Sulton, Komil Yashin, Vohid Abdulla kabi atoqli olim va yozuvchilar bilan yonma-yon turib,

akademiyaning oyoqqa turishida va keng quloq yozishida munosib hissa qo'shdi. 1955-yilning kuzida Ibrohim Mo'minov Fanlar akademiyasining Tarix institutiga rahbarlik qilishga taklif etiladi. 1956-yil u Fanlar akademiyasining akademigi va vitse-prezidenti etib saylanadi. Ana shu davrdan boshlab, alomanning nafaqat ilm-fandagi, balki davlat va jamoat ishlaridagi tashkilotchilik hamda rahbarlik salohiyati oshib bordi. Akademikning falsafa fani bo'yicha fan doktorlarini ko'paytirishdek azmu qarori ro'yobga chiqib, Ibrohim Mo'minov maktabi yuzaga keldi. Aloma yigirmadan ziyod fan doktori va yuzdan ortiq fan nomzodini tayyorlash, shuningdek, zimmasidagi qator rahbarlik vazifalarini bekamu ko'st bajarish barobarida o'zi o'yab yurgan tadqiqotlar ustida ham tinim bilmay ishladi. U kishi ish kabinetida o'tirganida ham, albatta, biron-bir qo'lyozmani tahrir qilayotgan, yangi tug'ilgan fikrlarni qog'ozga tushirayotgan yoki kitob mutolaa qilib o'tirgan bo'lar edi.

O'zbekiston Oliy Kengashi deputati, O'zbekiston Oliy Kengashi Tashqi ishlar bo'yicha doimiy komissiyasining raisi, "Fan va turmush", "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar" oylik jurnallari bosh muharriri, O'zbekiston "Bilim" jamiyati va O'zbekiston faylasuflari jamiyati raisi, O'zbek Qomusi bosh tahririyatining tashkilotchisi va birinchi bosh muharriri sangari ko'plab o'ta mas'uliyatli rahbarlik vazifalari akademik Ibrohim Mo'minovdan ana shunday g'ayrat-shijoat bilan ishlashni talab etishi tabiiy edi. Birinchidan, bu allomaga bildirilgan yuksak ishonch bo'lsa, ikkinchidan, u kishining bilim va tajribasidan, ilmiy salohiyatidan to'g'ri va samarali foydalanish, uchinchidan, yetuk kadrlarni tarbiyalash ko'zda tutilgani aniq. Aloma qalamiga mansub "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli"



nomli risola haqidagi fikrimizni olimning sadoqatli shogirdi, falsafa fanlari doktori, professor Naim G'oyibovning hikoyasi bilan davom ettirishni lozim ko'rdik.

— 1966-yilning bahori. Nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgach, Falsafa va huquq institutida katta ilmiy xodim vazifasida ishlayotgan edim. Kunlarning birida ustoz meni huzuriga chorlayotganini aytishdi, — deb yozadi Naim G'oyibov. — Akademiya Prezidiumida tezda yetib bordim. Domla Amir Temur haqida risola tayyorlayotganini gapirib, buning uchun ba'zi manbalardan materiallar yig'ish, iqtiboslar olishga yordam berishimni so'radi. Va so'zida davom etib, Akademiyaning asosiy kutubxonasidagi maxsus fondga saqlanayotgan oltita kitobni nomma-nom sanadi. Men vazifani tushungan bo'lib, o'rnimdan qo'zg'algan ham edim, ustoz "Yo'q, to'xtang, sizga dabrurustdan bu kitoblarni berishmaydi, buning uchun xat yozib beramiz", dedi. Xiyol o'tmay, kitoba xatni olib kirdi. Unda mening katta ilmiy xodim ekanim va Amir Temur haqidagi kitoblar bilan tanishish uchun menga ruxsat berilgani aytilib, tanishilajak kitoblar ro'yxati yozilgandi. Ular orasida Klavixoning 1881-yilda Sankt-Peterburgda rus tilida chop etilgan "Дневник путешественника ко двору Темура в Самарканде в 1403-1406 г." kitobi, fransuz olimi Langlening 1890-yilda Toshkentda rus tilida chop etilgan "Жизнь Темура" nomli asari, shuningdek, rus sharqshunoslari asarlari bor edi. Domla xatni menga uzatib, bu kitoblarda bobomiz Amir Temur haqida haq gaplar ko'p, ularni sinchkovlik bilan o'rganish zarur, dedi. So'ngra allaqayerda Temur haqida Marksning bir



fikrini o'qiganini va iloji bo'lsa, uning o'sha so'zlarini izlab topishni tayinladi. Maktubni olib, Akademiyaning o'sha vaqtdagi Qizil maydon bilan tutash binosida joylashgan asosiy kutubxonasiga bordim. Kutubxonada direktori xatni o'qib chiqib, bir oz sukut saqladi, menga taajjub aralash qarab qo'ydi. So'ng bir xodimni chaqirdi-da, maktubni unga berib, mening ishimni belgilangan tartib asosida tashkil etishni uqtirdi. Xodima bilan bir xonaga kirdik. U "Hozir", deya chiqib ketdi. Bir ozdan so'ng qalin papka qo'lqab kirdi-yu, papka ichidan mo'jaz bir kitob chiqarib, menga tutqazdi. Xodima xonadan chiqib ketayotib, "Kechirasiz, endi men sizni qoldirib, xonani qu'llab ketishim kerak, tartib shunaga, biron savolningiz bo'lsa, mana telefonim, chaqirasiz", dedi. Xodima xonadan chiqdi. Eshik shirg etib qu'llandi. Men esa direktorning hail ayrgan "belgilangan tartibi" shu bo'lsa kerak, deb ishga kirishdim. Menga qoldirilgan kitob Klavixoning yuqorida nomi keltirilgan asari edi. Sekin varaqladim. Klavixo degan nomni oldin eshitmaganim uchun noshir tomonidan berilgan so'zboshini o'qiy boshladim. Demak, Klavixo Ispaniyaning Amir Temur huzuridagi elchisi, Temur bilan ko'p uchrashgan, uning davlat yurish ishlarini, jangu jadallarini ko'rgan, kuzatgan shaxs. Buning ustiga yevropalik, xolis inson. Binobarin, uning esdaliklari eng ishonchli bo'lishi kerak. Shu xayollar bilan kitobni sinchkilab o'qiy boshladim. Yo, ajab! Bu yerdagi gaplar men o'ylaganimdan ham ziyoda. Domlaning bu kitoblarda Temur bobomiz haqida haq gaplar ko'p, degan so'zlar qulog'imda balandroq jaranglaydi. Haqiqatan, Amir Temurni salbiy ko'rinishda ta'rifi bilan sovet mafkurasi qarama-qarshi o'laroq, Sohibqironning olim, shoir, san'atkor, me'mor va hunarmandlar bilan suhbatlari, qurilish sohasidagi ishlari, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, boshqa shaharlarda obodonchilikka e'tibor va hokazolar ko'tarilgan bilan bayon etilgan... Kitobdan eng zarur joylarini daftarimga ko'chirdim. Shu zayilda ishlab, ovqatlanish ham esdan chiqib ketdi... Chamas, xodimning ish soati tugadi, shekilli, kechga tomon eshik shirg etib ochilib, xonaga kirib keldi.

— Bugunga yetar, ertaga boshqa kitob ustida ishlaysiz, — deganicha qo'lmdan Klavixoning kitobini olib, men bilan xayrlashdi. Ertasiga Langlening kitobi, keyingi kunlar boshqa kitoblar bilan tanishib chiqdim. Xullas, kutubxonaning menga ajratilgan xonasida bir hafta ishladim. Kutubxonada xodimasi mening ishimni "belgilangan tartib" asosida tashkil etdi. Navbat xodimaga minnatdorlik bildirib, xayrlashishga kelganda, Marksning Temur haqidagi fikri masalasi esimga tushdi.

— Karl Marksning Amir Temur haqida bir bahosi bor ekan, shuni topishga yordam berolmaysizmi? — so'radim undan.

— O'vora bo'lmang, umumiy katalogdan uni topolmaysiz... Mayli, yordam bersam, beray, — dedi-da, chiqib ketdi. Xiyol o'tmay, qalimga bir kitobni qo'limga tutqazib, "Ko'ring-chi, shundan topsangiz kerak", dedi. Kitob "К.Маркс. Хронологические выписки. Архив Маркса i Энгельса. T.U.1" deb nomlangan. Kitobni varaqlay boshladim. Marksning hayotiga doir yozuvlar, uning uzuq-yuluq so'zlari qalashib yotibdi. Qani endi, bular orasidan kerak bo'lgan so'zlar chiqsa... Nihoyat, topdim! Marks Amir Temur faoliyati haqida gapirib, Temur o'zi tuzgan yangi saltanatda adolatli qonunlar joriy etdi, degan ekan. Ana shu birgina jumla uchun "bechora" bu kitob ham maxsus fondga tushibdi. Kutubxonada to'plangan materiallarni tartibga solib, domlaga topshirdim. Ustoz risola ustida yana ikki yil ishladi. Nihoyat, qo'lyozma tayyor bo'ldi. 1968-yilning may oyida Akademiya Prezidiumida kengaytirilgan Kengash chaqirilib, unda ustoz o'zi yozgan risola haqida ma'ruza qildi. So'zga chiqqan barcha olimlar, akademiklar, fan doktorlari, professorlar Ibrohim Mo'minov asarini yoqlab gapirdi, uni o'zbek va rus tillarida chop etish zarurligini ta'kidladi. Va u o'sha, 1968-yilda "Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" nomli bilan rus va (mening tarjimamda) o'zbek tillarida

alohida-alohida kitob bo'lib bosmadan chiqdi. Respublika ilmiy-madaniy jamoatchiligi uni xursandlik bilan kutib oldi...

Ushbu fikrlardan shuni anglash mumkinki, Ibrohim Mo'minov Sohibqiron haqidagi risolasini tegzina yozib, e'lon qilishga shoshilmagan. Uning tarixiy dalillar asosida puxta va pishiq bo'lishi uchun qancha izlanish, o'qish, o'rganish kerak bo'lsa, shunga tayyor bo'lgan. Aks holda, risola ustida yana ikki yil o'tirmagan bo'lardi. Demak, "markaz"dagilarning timoq ichidan kir qidirishga ustaligini yaxshi bilgan alloma Amir Temur haqidagi har bir fikrini, har bir gapini, kerak bo'lsa, har bir so'zini yetti o'chab, bir kesgan. Millat sha'nini yuksaklarga ko'targan, Temur haqidagi haqiqatni butun dunyoga oshkor qilgan bu buyuk jasorat Ibrohim Mo'minovning nimalarga qodirligini yana bir bor yorqin namoyon etdi. Afsuski, ko'p o'tmay, olimning, shuningdek, Klavixo va Marksning mavjud tarixiy manbalarga asoslanib ayrgan adolatlari fikrlari Moskvoning kommunistik tuzum g'oyalarga sadoqatli bo'lgan "bilmond olimlari" va partiya arboblari tomonidan Kremning topshirig'i bilan "to'p"ga tutildi. Bahona: "I. Mo'minov asarida Amir Temur haqidagi tarixiy haqiqat buzib ko'rsatilgan, uning shaxsiyati idealashtirilgan". Ana xolos, buyuk faylasuf va tarixchi alloma Mo'minov bu masalani uzoq yillar qanchadan-qancha noyob manbalarni o'rganib, qiyoslab, tahlil qilib, Sohibqiron haqidagi bor haqiqatni baralla ayrgan bir paytda, "markaz" daholari birpasda nimaga asoslanib o'zbek olimi fikrini puchga chiqarmoqchi bo'ldi? Hech narsaga! Bu g'irt tuhat edi. Uning ortida butunlay boshqa maqsad — zulm va zo'ravonlik siyosatiga putur yetkazmaslik, buning uchun qanday bo'lmasin, yopiqlik qozonni yopiq qoldirish masalasi ko'ndalang bo'lib turardi. Shuning uchun bu sharmandali ishga Markaziy Komitetning ayrim "daholari" rahbarlik qilib, gazeta va jurnallarda o'zlarining nomdor olimlari nomidan Mo'minov asariga qarshi ketma-ket maqolalar chop ettirdi. Kamiga o'zbeklarning "labaychi" va ta'zim bilan "xo'p bo'ladi!" deydgan "fidoyi"larini topib, Mo'minov risolasiga qarshi targ'ibotni yanada kuchaytirdi. Ularning tuturizig, safsata va bo'htondan iborat maqolalarini o'zlari lozim topgan nashrlarda bastirdi.

Ammo qattiq nazorat va ta'qib hukm surayotgan og'ir sharoitda mustaqillik ramzi hisoblangan — Amir Temurni "oqlash" haqida oshkora yozish hazil gap bo'lmagan. Buning uchun vatanparvar, millatparvar va jasoratli bo'lish zarur edi. I. Mo'minov xuddi shunday olim sifatida o'zini ko'rsatdi. "Uning Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli" kitobi nashr etilganda, nihoyatda zellig va xo'rlangan o'zbek xalqida g'urur va iftixor tuyg'ulari uyg'onib, yelkasi ga o'tob va ko'kragiga shamol tekmandek bo'ldi", deya bong urgan edi yirik tarixshunos olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Hamid Ziyoyev. Xuddi shunday fikrlari ifoda etilgan mazkur maqola Sharof Rashidov tavsiyasi bilan "История СССР" jurnaliga taqdim etilishiga qaramay, muallif oylar o'tib, jurnaldan rad javobini oldi. Bu yagona misol emas, albatta. Xo'sh, qizil imperiya poytaxtining Amir Temur kimligini bilmagan, balki bilib turib tan olishni istamagan maddohlari va ularning yurimizdagi malaylari qomusiy olim, O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Davlat mukofoti sovrindori, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, mehribon ustoz, milliy qadriyatlarimizning tolmaz targ'ibotchisi Ibrohim Mo'minovning Sohibqiron bobomiz haqidagi kitobiga "urush" e'lon qilib, o'zlarining zulm va zo'ravonlik siyosatiga yo'g'rilgan chirkini va badbo'y tuzumlarini saqlab qololdimmi?! Yo'q! U chok-chokidan so'kilib, titilib ketdi.

Gegel va Bedil falsafiy tafakkurining shoiri Ibrohim Mo'minovning haqiqatlari esa O'zbekiston mustaqilligi sharofati bilan ahli olam uzra keng yoyilib, mehru-muhabbat ila o'rganilmoqda va yangi-yangi asarlarning dunyoga kelishida ilhomбахsh qanot bo'lmoqda.



XORIJDAGI VATANDOSH

O'ZBEKISTONLIK YOSHLARGA
IMKONIYATLAR YETARLI

Mamlakatimiz rahbari 2019-yil yanvar oyida Germaniyaga tashrifi chog'ida mazkur davlatda ishlayotgan vatandoshlarimizga O'zbekistonga bormay turib ham bilim va tajribalari bilan yurtimiz rivojiga hissa qo'shishlari mumkinligini aytganida, ular bu gaplardan ruhlangan, yurt ravnagiga hissa qo'shayotganidan baxtiyor ekanini bildirgan edi. Samarqandlik vatandoshimiz Zarina TILLAYEVA ham Germaniyada dars berish mobaynida ayni davlat ta'lim tizimini chuqur o'rganib, eng ilg'or usullarni yurtimiz maktablarida qo'llashni maqsad qilganlardan biri. Uning hikoyasiga quloq tutamiz.

Bir yillik dastur sabab...

Ayni paytda Germaniyada oilam bilan yashashimga Samarqand shahridagi nemis tiliga ixtisoslashgan 51-maktabda o'qiganim turki bo'ldi. Bu maktab Germaniyaning ZFA (Chet eldagi maktablar markaziy birlashmasi) tashkiloti bilan 2000-yildan buyon hamkorlik qiladi. Doimo germaniyalik o'qituvchilar dars bergan, to'garaklar o'tgan. Yosh volontyor yigit-qizlar ham kelib ishlardiki, bu bilan tilga bo'lgan qiziqishim yanada oshdi. Maktabni bitirgach, Samarqand davlat chet tillar institutida o'qib, o'z maktabimga o'qituvchi sifatida qaytib keldim. Negaki, maktabda o'qituvchilar uchun katta imkoniyatlar bor. Haftalik, oylik, bir yillik dasturlar doirasida Germaniyaga malaka oshirish uchun yuboriladi. O'quvchilarimiz ham qisqa dasturlar doirasida o'qib, maktabni tamomlagach, S1 darajali sertifikat olsa, Germaniya oliygo'hariga talabalikka qabul qilinadi. O'zim ham bu davlatga ilk bor seminar ishtirokchisi sifatida kelganman. Keyin 1 yillik dastur tanloviga hujjat topshirdim. Omadim kelib, grant yutib oldim. Oilaviy ko'chib keldik. Bir yil mobaynida Gymnasium Bad Iburg (Bad Iburg gimnaziyasi) da dars berdim. Nemis bolalari bilan ham ishladim, asosan urush sabab Ukrainadan ko'chib kelgan aholining bolalariga dars berdim. Oliy ta'limni Germaniyada o'qimaganim bois, dastur doirasidan chiqqan holda davomli ishlashim mumkin emasdi. Bu yerda o'qituvchi bo'lib ishlash uchun Lehramt (o'qituvchilarni tayyorlaydigan universitetlardagi alohida yo'nalish)ni tamomlash kerak.

Ayni paytda nemis tilidagi bilimlarimni yanada kuchaytirib, o'qituvchilikni davom ettirish va shu orqali Germaniya ta'lim sohasini chuqurroq o'rganish maqsadida o'qishda davom etyapman. Gimnaziya rahbariyatining o'zi ham shu yerda ishlayverishimni so'radi. Chunki ular nemis bo'lmagan bolalarni o'qitishda qiynaladi, to'g'rirog'i, bu borada mutaxassislar juda kam. Mening yo'nalishim esa nemis tilini chet til sifatida o'qitish. Shu ma'noda, men kabi mutaxassislariga ehtiyoj bor.

Germaniyada boshlang'ich maktab alohida, yuqori maktab ham gimnaziya, real maktab, umumiy maktab kabi turlarga ajratilgan. Shunga ko'ra, universitet fakultetlari ham farqlanadi. Masalan, real maktab yo'nalishini bitirgan o'qituvchi gimnaziya davomida ishlay olmaydi. 3 yil bakalavriat bosqichidan so'ng 2 yil magistraturada o'qishi shart. Keyin referendariat bosqichida talaba 1,5 yil ichida biror maktabga birlashtiriladi va amaliyot tariqasida dars o'tib yuradi. Darslarini universitetdagi o'qituvchilari kuzatib borib,

o'qituvchilikka tayyorligini tasdiqlasagina talaba ishga qabul qilinadi, shunda ham bir yil sinov muddati bilan. Germaniya maktablarida ishlash oson emas. Ushbu davlat ta'lim tizimidan o'zlashtiradigan jihatlarimiz ko'p.

45 daqiqalik darsdan so'ng hech kim chiqib ketmaydi

Germaniyalik bolalar faqat bir smena-da o'qiydi. Soat 8:00 dan 13:00 gacha. Darsdan so'ng to'garagi bor o'qituvchilar, o'quvchilardan tashqari hamma uyiga ke-



tishi mumkin. Bu yerda intizom, tartib juda qat'iy, biror-bir ish favqulodda bo'lmaydi. Hammasi oldindan belgilanadi. Eng tezkor e'lon ham bir kun oldin aytiladi. Internet tarmog'iga ulanmagan maktab yo'q. Men ishlaydigan gimnaziya nafaqat informatika, balki har qaysi fan o'qituvchisi kirib dars o'tishi uchun kompyuterxonalar mavjud. Faqat o'qituvchi shu xonada dars o'tmoqchi ekanini oldindan rejalashtirib qo'yishi kerak.

8-sinfdan boshlab o'quvchilar plan-shetlar bilan ta'minlanib, ular sinfxonalarga o'ralgan ekranlarga ulanadi. Ekranda bemalol elektron tarzda mashq bajarish, doskada yozgandek yozish mumkin.

Dars jadvalidagi tartib ham bizdagi-dan boshqacharoq. Birinchi va ikkinchi dars oraliqida tanaffus yo'q. Ko'pincha

bitta fan ikki soat — ketma-ket qo'yiladi. Boshqa-boshqa fan qo'yilgan taqdirda ham 45 daqiqadan so'ng fan o'qituvchilari almashadi. Hech kim sinfdan chiqib ketmaydi, shovqin bo'lmaydi. Bir yarim soatlik darsdan so'ng yarim soatlik tanaffus beriladi. Bu o'qituvchi uchun ham, o'quvchilar uchun ham qulay. Yarim soat ichida toza havoda yurish, yengil tamaddi qilib olish mumkin. Uchinchi va to'rtinchi darslardan so'ng yana yarim soatlik tanaffus qilinib, 5-6-darslar bilan maktab kuni yakunlanadi.

Darvoqe, ota-onalarga maktab ichida bemalol yurishga ruxsat berilmaydi. Ular farzandining o'qituvchisi bilan gaplashmoqchi bo'lsa, uchrashuv kuni va soatini oldindan kelishib olishlari kerak.

O'qituvchilar majlisleri ham ko'p bo'lmaydi, bir yilda 3-4 bor o'tkaziladi. Maktabda 100 dan ziyod o'qituvchi ishlasada, har biri o'z stoli, shkafi, kompyuteri, printeriga ega. Ustozlar uchun alohida ovqatlanish xonasi, o'quvchilarning o'z oshxonalarini bor. Tanaffusda o'qituvchilar sinfxonalarini qullab, dars boshlanishidan oldin ochib qo'yadi.

Ta'til payti oilalar albatta sayohatga chiqadi. Ota-onalar ham ish joyidan bir yil oldin ta'tilga ruxsat oladi. Turli davlatlarda dam olish joylariga boriladi. Umuman, nemis maktablaridagi tartib-qoidalardan o'rnak olsa arziydi.

O'zbek xalq ertagini nemis tilida sahnalashtirdik

Ukrainadan Germaniyaga, Bad Iburg shahriga ham ko'plab aholi ko'chib keldi, gimnaziya davomida bola ko'paydi. Nemis tilini umuman bilmaydigan bu bolalardan menga alohida guruh qilib berishdi. To'g'ri, nemis tili o'qituvchilari bor, lekin ular nemis tilini chet til sifatida o'tish salohiyati yo'q edi.



Bolalar meni o'ylaganimchalik qiynamadi. Ba'zilari qiziqishi kuchligi sabab nemis tilini tez o'rgandi. Ota-onalari maktabga kelganida o'qituvchilarning gaplarini ular tarjima qilib berardi. Bir yil ichida A1, A2 darajani olishga erishishdi.

Nemis bolalari ertaklarni sahnalashtirishga qiziqar ekan. O'zimning "Zumrad va Qimmat" ertagini sahnalashtirdik. Nemis xalq ertaklari bilan qiyosladik. Bu ikki xalq madaniyati uyg'unligida nafaqat

Germaniyaga kelishimdan oldin magistraturada shartnoma asosida o'qigandim. Oliy ta'limning bu bosqichi xotin-qizlar uchun endi bepul bo'lganini eshitib, magistraturada tahsil olayotgan dugonalaringa havas qildim.

Umuman, bugun o'zbekistonlik yoshlarning unib-o'sib, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Buning esa qadriga yetish kerak.

tilga, balki adabiyot va san'atga ham mehr uyg'otish uchun yo'lga qo'yildi. Nabis qilsa, hali ko'plab milliy ertaklarimizni nemis tilida sahnalashtiramiz.

O'zbek tilini unutib qo'yishlaridan qo'rqaman

O'qituvchilar oilasida tarbiya topganim sabab, bizdagi tarbiyaning o'rni boshqacha ekanini bu yerga kelganimdayoq tushunib yetganman. To'g'risi, bu boradagi farq katta.

Ikki yilda bolalarimiz bemalol nemis tilini o'zlashtirib oldi. Bog'chada, maktabda, ko'chada nemis tilida muloqot qilinadi. Agar uyda ham shu tilda gapirsak, o'zbek tilini tamoman unutib qo'yishlaridan qo'rqaman. Shundoq ham ba'zida ayrim so'zlarni unutib qo'yishadi. Bunday vaziyatda o'sha so'zning o'zbekcha tarjimasini tushuntiramiz. Internet orqali o'zbek xalq ertaklari, multfilmilarini topib, qo'yib beraman. O'zim ham o'zbek telekanallarini tomosha qilgim keladi.

Milliy liboslarimiz, taomlarimizga keladigan bo'lsak, Germaniyaning ovqatlariga hali ko'nikib ketganimizda yo'q. Deyarli o'zimning milliy taomlarimni iste'mol qilamiz. Ayniqsa, ko'k soma, manti tayyorlasam, palov damlasam, uyg'adilar xursand bo'lib ketadi. Ta'til payti O'zbekistonga borganimizda ham milliy taomlarimizni sog'inganimizni his qildik. Milliy kiyimlardan olib keldik. Mustaqillik, Navro'z bayramlarini onlayn bo'lsa-da, oilaviy tomosha qilamiz. Bu ham milliylikka muhabbatdan bo'lsa kerak. To'g'ri, nemis madaniyatida ham o'rnak olsa arziro'j jihatlar bor. Ayniqsa, bu xalqning har bir ishga mas'uliyati bilan yondashishi, har qanday vaziyatda ko'makka muho'zinsong yordamga shoshishi, foydali maslahatlar berish kabi xislatlari bizda ham mujassam bo'lsa edi...

O'zbekistonda xotin-qizlarga qaratilayotgan e'tiborga havas qilaman

So'nggi yillarda O'zbekistondagi o'zgarishlarni ko'rib quvonadi odam. Chet el gazetalarini ham mamlakatimizda keskin o'sish bo'layotgan haqida yozyapti. Ayniqsa, ta'lim tizimida xotin-qizlarga bo'layotgan e'tibor meni juda xursand qildi. Ularni magistraturada bepul o'qitish, oliy ma'lumotli qilish eng ezgu ish, katta yangilik. Xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish borasida yangi qonunlar qabul qilinayapti. Maktabgacha ta'lim, maktab, oliy ta'lim sohasida ham ulkan imkoniyatlar berilyapti. Moliyaviy qo'llashlarning samarasi har jabhada ko'rinayapti. Maktablarning moddiy-texnik bazasiga jiddiy e'tibor qaratilyapti. Germaniyadagi eng sifatli darsliklar chiqaradigan "Klett" nashriyoti bilan O'zbekistonning shartnoma imzolagani biz, nemis tili o'qituvchilarini bag'oyat xursand qildi. Zero, endi Germaniyadan eng zamonaviy darsliklar yetkazib berilyapti. O'qish kitobi, mashq daf-tari, o'qituvchi uchun qo'llanma, disklar, elektron variantlari bor bu darsliklarni Samarqanddagi hamkasblarim bir necha yildan buyon orzu qilardi.

O'qituvchilarga ajratilayotgan kreditlar, S1 sertifikatiga ega pedagoglarga berilayotgan ustamalar haqiqatda soha vakillariga yuksak e'tibor ifodasi. Oliy ta'limda ham ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanayapti, o'qishga kirish masalasi avvalgidek faqat inson omiliga bog'liq emas. Korruptsiyaga qarshi kurash kuchaygani bu borada yaqqol sezilyapti.

Germaniyaga kelishimdan oldin magistraturada shartnoma asosida o'qigandim. Oliy ta'limning bu bosqichi xotin-qizlar uchun endi bepul bo'lganini eshitib, magistraturada tahsil olayotgan dugonalaringa havas qildim.

Umuman, bugun o'zbekistonlik yoshlarning unib-o'sib, jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud. Buning esa qadriga yetish kerak.

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Munajat MO'MINOVA yozib oldi.

OLISDAGI YAQINLAR
DAVLAT
E'TIBORIDAOdiljon SATTOROV,
"Vatandoshlar" jamoat fondi
boshqaruvi raisi

Taqdirning insonga bergan rizqi qay makonda ekanini hech kim oldindan belgilay olmaydi. Kimdir Vatanda, yana kimdir olisda hayot kechiradi. Ko'p millatli vatandoshlarimizning bir qismi ham dunyoning turli mamlakatlarida palak yozmoqda.

Bu insonlar yurtning ohanrabodek o'ziga rom etuvchi tafti, havosi, kishilarining nurl yuzi, to'y va hashamlari, milliy bayramlarini qo'mashini Vatandon olisda yashayotganlar yanada yaxshiroq angelaydi. Shu bois, so'nggi yillarda xorijiy mamlakatlarda yashayotgan vatandoshlarni ota yurt atrofida jipslashtirish, qalbi va ongida yurt bilan faxrlanish tuyg'usini yuksaltirish, milliy o'zlikni saqlab qolish maqsadida tarixiy va xayrli tashabbusga qo'l urildi.

O'zbekiston Prezidenti qarori bilan 2021-yil 11-avgustda "Vatandoshlar" jamoat fondi tashkil etildi. Bu qaror olis manzillaridagi vatandoshlar uchun chinakam tarixiy va unutilmas voqea bo'ldi.

Fondning asosiy vazifalariga vatandoshlar bilan doimiy aloqalarni yanada mustahkamlash, ular tashabbuslarini yurtimiz taraqqiyotiga samarali yo'naltirish, o'zbek tili, boy qadriyatlarimiz, milliy o'zlikni saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish kabilar kiradi.

Fond tashkil topgan kundan vatandoshlar bilan do'stona muloqot maydonini yaratish boshladi. O'tgan ikki yil mobaynida vatandoshlar va ular tomonidan tuzilgan jamoat birlashmalari bilan minglab muloqotlar o'tkazildi. 70 dan ortiq jamoat birlashmasi bilan anglashuv memorandumlari imzolandi, istiqbolli yo'l xaritalari tuzildi.

Dunyoning turli nuqtalarida milliy bayramlar — Navro'z, Mustaqillik bayrami tantanalari, O'zbekiston madaniyati kunlari, futbol musobaqalari, palov festivallari, adabiyot kechallari o'tkazildi. Ularda yuz minglab vatandoshlar ishtirok etdi. Bayramlar doirasidagi muloqotlarda yurdoshlarning hayajonli fikrlari, Vatanga yo'layotgan salomiy minnatdorlik kayfiyatini ko'rish mumkin.

T.Noyzova,
So'g'd viloyati Shukur Burhonov nomidagi o'zbek musiqiy drama teatri aktyori:

— Oldinlari oynai jahon orqali O'zbekistonda o'tkaziladigan turli bayramlarni havas bilan tomosha qilar edim. Qani endi chegaralar ochilsa-yu, ota yurtga tez-tez borsam, degan orzu meni tinch qo'ymasdi. Bugun xuddi shu bayram shukuhini Xo'jandga vatandoshlar olib keldi. O'zbekistonning xorijdagi vatandoshlarga bo'lgan e'tibori meni yanada faxrlantirdi. Men xorijda turib ham O'zbekistonning ezu tashabbuslarini hamisha qo'llab-quvvatlashga tayyorman.

K.Mahmudova

(London shahri):

— Tower Bridge xiyobonida o'tkazilgan O'zbekiston madaniyati kunlari tadbirlarida ishtirok etdim. Londonda deyarli 28 yildan buyon yashayman. Bu hayotimdagi vatandoshlar bir joyga to'plangan eng birinchi va eng katta tadbir bo'ldi. Biz juda ham xursandmiz. Ishonasmiz, vatandoshlarimiz tuni bilan uxlamay, ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlariymiz taassurotlarini yozib chiqdi. Madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy hunarmandlik namunalari dunyo sahnalariga olib chiqilayotgani biz uchun sharafl!

S.Pardayev,

Google kompaniyasi dasturchisi (AQSH):

— Mustaqillik kuniga bag'ishlangan shodiyonalarda ishtirok etganimdan baxtiyorman. Bugun men kelajagim uchun aniq maqsadimni belgilab oldim. Ya'ni yurtimga qaytaman, yurtimga kerakman, yo'nalishim bo'yicha o'z mamlakatimda yangi g'oyalarni tatbiq etishim zarur! Mashhur kompaniya xodimi bo'lsam ham bugungi tadbir yurtimga qanchalar intiq ekanimni anglatdi. Xorijlik hamkasblarimni ham bayramga olib keldim. Ular yurtimga shunchalik qiziqib qolib, O'zbekistonga borish istagini bildirdi. Axir bunday o'ziga xos qadriyatlarini bor yurtini sevmay bo'ladimi?

Joriy yil sentyabr oyida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning AQSHga tashrifi davomida bir guruh vatandoshlar bilan samimiy muloqot bo'lib o'tdi. Unda AQSHdagi oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan yoshlar bilan bir qatorda nufuzli tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan vatandoshlar ham qatnashdi. Davlatimiz rahbari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida so'zlab berdi, mamlakatimiz modernizatsiyasiga ko'maklashishda vatandoshlarimizda ulkan salohiyat borligiga e'tibor qaratdi. Vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash, ularning jamoat birlashmalari faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi.

"Biz ta'lim, tibbiyot, iqtisodiyotda olib borayotgan yangilanishlar natijasini har bir yurdoshimiz o'z hayotida his qilishi kerak. Sizlardek xorijda o'qigan, yirik kompaniyalarda ishlab, tajriba orttirgan yuqori malakali mutaxassislar ham yurtimizga qaytib kelishi va butun salohiyati bilan yangi O'zbekistonda barpo etishda ishtirok eta olishlari uchun barcha sharoitni yaratishimiz kerak. Bugun shu yerdagi har bir o'zbekistonlikda kuchli Vatanda hissi va uning rivojiga hissa qo'shish ishtiyoqini ko'rib, juda xursand bo'ldim. Sizlarni O'zbekistonda kutib qolamiz", dedi Prezidentimiz.

Uchrashuvda Boston shahridagi "Dana Farber Cancer" instituti loyihalari katta menejeri N.Qahhorova ham qatnashdi.

— Yurtimdan ancha uzoqda yashasam ham vatanparvarman, deya olaman. Tibbiyot sohasida dolzarb muammo va ularning yechimlari bo'yicha jamoam bilan katta loyihalarni amalga oshiramiz, — deydi u. — Shunday manfaatli loyihalarni yurtimda qo'llash bugunga qadar katta niyatlarimdan biri bo'lgan. Bugun menda mamlakat rahbari bilan suhbatda ishtirok etish, takliflarimni bildira olish imkoni bo'ldi. Rosti, bu hayotim zarvaraqalaridagi tarixiy voqea.

Bugun "Vatandoshlar" jamoat fondi faoliyati davomida xorijdagi vatandoshlar tashabbuslari, takliflarini amaliyotda qo'llash, faol yurdoshlarimiz safini yanada kengaytirish, mushkulni oson qilish, istiqbolli rejalarni ustida tinimsiz ishlashga e'tibor qaratgan.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Qabulxonaga: (71) 233-56-33

Devonxonaga va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun ubunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxonaga telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-1046.

Hajmi — 3 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova

Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00